



TOMAS HARRIS



QIZIL AJDARHO

JAHON ADABIYOTINING BESTSELLERI

TOMAS HARRIS

QIZIL AJDARHO

(o‘tkir syujetli psixologik triller)

“ZUKKO KITOBXON” nashriyoti

TOSHKENT – 2021

UO*K:821.111(73)-31

KBK:84(7)-44

II 30

Tomas Harris. “Qizil ajdarho” /roman / ingliz tilidan **Samandarova Sojida** tarjimai / “Jahon adabiyotining bestsellersi” turkumi – T.: “Zukko kitobxon”, 2021. – 496-bet.

Amerikalik mashhur yozuvchi Tomas Harris ko'plab mukofotlarga sazovor bo'lgan taniqli triller asarlar muallifi hisoblanadi. Uning asarlari 50 million nusxadan ortiq sotilgan.

Tomas Harrisning ushbu “Qizil ajdarho” asari qotil doktor Gannibal Lekter haqidagi tetralogiyasining birinchi kitobidir. Bu kitob dunyo bo'ylab 10 million nusxadan ortiq sotilgan va 40 dan ortiq tilga tarjima qilingan.

Bu asarda izquvar Grexem bir vaqtlar o'zi qo'lga olgan, ayni vaqtda ruhiy kasal jinoyatchilar shifoxonasidagi davolanayotgan afsonaviy qotil doktor Gannibal Lekterdan “Qotilni, albatta, qotil tuta oladi” degan tamoyilga asoslanib Amerika Qo'shma Shtatlarini zir titratayotgan “Tish parisi” laqabli beshafqat qotilni tutishga yordam berishini so'raydi.

Axir, o'zi uchiga chiqqan jinoyatchi bo'la turib, Gannibal Lekter nega boshi berk ko'chaga kirib qolgan mamlakatning manaman degan izquvarlariga tutqich bermas qotilni tutishda qimmatli maslahatlarini berishi mumkin?

Qamoqxonaning zerikarli muhitidan to'ygan Lekter ham bu iltimosga rozi bo'ladimi?

Yoki Federal qidiruv byurosi izlayotgan “Qizil Ajdarho”ni qo'lga olib, o'zidan da aqlliyoq qotil yo'qligini isbotlamogchi bo'ladimi?

“Tish parisi” kim o'zi? Uning oilasi bormi?

Nega u doimo vahshiy qotilliklar qilgan?

“Tish parisi” va “Qizil Ajdarho” bitta shaxsmi?

Gannibal Lekter izquvar Grexemga, haqiqatan ham, yordam beradimi?

Izquvar Grexemning o'zi ham “Qizil ajdarho”ning navbatdagi o'ljasi ga aylanadimi?

“Qizil ajdarho” qo'lga olinadimi?

Ushbu savollarga asar o'qish davomida javob topasiz!

UO*K:821.111(73)-31

KBK:84(7)-44



ISBN:978-9943-7200-3-9

© Tomas HARRIS

© “Zukko kitobxon”
nashriyoti,2021

TOMAS HARRIS VA UNING IJODI HAQIDA

Tomas Harris AQShning Tennesi shtatidagi Jekson shahrida 1940-yilda tugʻilgan. U bolaligini Missisipi, Rich, Klivlend va Klarksdeyl shaharlarida oʻtkazgan. 1964-yilda Baylor universitetini ingliz tili mutaxassisligi boʻyicha tugatgan. Talabalik paytida yoq jurnalistikaga qiziqib, mahalliy “The Waco Tribune Herald” gazetasida muxbir boʻlib ishlagan va politsiya bilan hamkorlik qilib gazetadagi jinoyatlarga oid tafsilotlar bilan shugʻullangan. 1968-yilda “Associated Press” gazetasiga ishga kirishi esa jinoyat olami sinoatlarini yanada chuqurroq anglashida eng katta imkoniyat boʻlgan. Yozuvchining ikkinchi yirik asari boʻlgan “Qizil ajdarho” 1981-yilda dunyo yuzini koʻrgan boʻlib, u odamxoʻr qotil va psixiatr Gannibal (“Kannibal”) Lekter obrazi ishtirok etgan birinchi kitob boʻlgan. Asar chop etilishi bilan bestsellerga aylangan va u asosida ikki marotaba: 1986-yil va 2002-yillarda kinofilm suratga olingan. Tomas Harrisga eng katta muvaffaqiyat va mashhurlikni uning doktor Gannibal Lekter haqidagi navbatdagi bestsellersi, 1988-yilda nashr etilgan, 1991-yilda uning asosida rejissyor Jonatan Demmi tomonidan suratga olingan va beshta Oskar mukofotini olib kelgan “Qoʻzi-choqlar sukunati” nomli ikkinchi kitobi keltirdi. Jinoyat mavzusini chuqur bilish va katta jurnalistik tajriba Harrisga shunday taʼsirchan va betakror asarlar yaratishga imkon bergan. Mutaxassislarning fikriga koʻra, yozuvchi tomonidan bayon etilgan baʼzi qotillik tafsilotlari, jumladan, jasadlar topilgan joylarning xaritasi, qotillikning alohida xususiyatlari va boshqalar ochilmay kela-

yotgan sirli jinoyatlarni muvaffaqiyatli ochishga imkon bergan. Harrisning chuqur qiziqishi va ishtiyoqi bilan ijod qilishi tufayli doktor Lekter haqida uchinchi kitob boʻlgan “Gannibal” 1999-yilda nashr etilgan va bu kitob asosida 2001-yilda rejissyor Ridli Skott tomonidan badiiy film suratga olingan. 2004-yilda yozuvchi toʻrtinchi kitobi — “Gannibal: yuksalish” asarini kitobxonlarga taqdim etgan boʻlib, unda olti yoshdan yigirma yoshgacha boʻlgan Gannibalning ilk bolalik va oʻsmirlik yillari haqida hikoya qilinadi. Romanda ikkinchi jahon urushi paytida Lekterlar oilasining qirilib ketishi voqealariga, doktor Lekterning singlisi Misha haqidagi xotiralariga alohida toʻxtaladi.

Psixologik triller janri boʻyicha eng yaxshi asarlar roʻyxatidan joy olgan jahon bestselleri “Qizil Ajdarho” ilk marotaba oʻzbek tiliga oʻgirilib nashr etilmoqda.

Tarjimon — Samandarova Sojida.

“AQSHda “Cho‘qintirgan ota”dan keyingi chop etilgan eng mashhur roman”.

Stiven King¹

“Qizil Ajdarho” — yurak urishingizni tezlashtirib, yashirin qo‘rquvlaringizni yuzaga chiqaruvchi asar”

“New York Times”

“Qo‘rqinchli, lo‘nda va tushunarli, yurakning eng qorong‘i nuqtalarigacha yetib boruvchi psixologik triller²”

“Saturday Review”

“O‘z jozibasi bilan kitobxonni mahliyo qilib qo‘yuvchi bebaho triller. Kitobni qo‘liga olganlar uyquni batamom unutadi va Tomas Harrisning sirli olamiga sho‘ng‘ib ketadi”

“Publishers Weekly”

“Mavsumning eng qo‘rqinchli kitobi”.

The Washington Post Book World

“O‘z-o‘zidan yilning eng yaxshi kriminal romani”.

Newsday

“Diqqat! Yuragi bo‘shlar o‘qimasin!”

Colorado Springs Sun

¹ **Stiven Edvin King** (1947-yilda tug‘ilgan) — turli xil janrlarda, jumladan, triller, fantastika janrlarda ijod qilgan amerikalik yozuvchi. U kitobxonlar orasida “Dahshat qiroli” laqabini oldi. Uning kitoblari 350 milliondan ortiq nusxada sotilgan.

² **Triller** (inglizcha: thrill — asabiy titroq, hayajon) — sarguzasht filmlar, badiiy asarlarning tomoshabinlar yoki o‘quvchilarda tashvish, vahima, bezovtaliq, qo‘rquv uyg‘otuvchi o‘ziga xos voqea, epizodlari bo‘lgan alohida turi.

*Biz hammamiz jinnimizmi yoki atrofimizdagi dunyo butkul aqldan ozganmi? Afsonaviy odamxo'r qotil va ruhiy kasal jinoyatchilar shifoxonasidagi mahbus doktor Gannibal Lekter Federal qidiruv byurosi bilan kelishib, Amerika Qo'shma Shtatlarini zir titratayotgan "Tish parisi" laqabli beshafqat qotilni tutishga yordam beradi. Axir, o'zi uchiga chiqqan jinoyatchi bo'la turib, Gannibal Lekter nega boshi berk ko'chaga kirib qolgan mamlatning manaman degan izquvarlariga tutqich bermas qotilni tutishda qimmatli maslahatlarini berishi mumkin? Qobiliyatli izquvar Uill Grexem **"Qotilni albatta qotil tuta oladi"** degan tamoyilga asoslanib ish ko'radi va faylasufga aylangan Gannibal Lekterga murojaat qiladi. Qamoqxonaning zerikarli muhitidan to'ygan Lekter ham bu iltimosga rozi bo'ladi. U Federal qidiruv byurosi izlayotgan "Ajdarho"ni qo'lga olib, o'zidan-da aqlliyoq qotil yo'qligini isbotlamoqchi bo'ladi.*

Muallif.

***“Inson anglagan narsasini ko‘ra oladi va ongida mavjud
narsalarnigina anglay oladi”.***

Alfons Bertilon¹

*Inson qalbi misli bir daryo,
Lek yuzida zada ruh ro‘yo,
Muhabbat bir ilohiy kuch go‘yo,
Tinchlik esa unga mos qabo.*

Uilyam Bleyk² — “Begunohlik navolari” (Ilohiy siyrat)

*Naqadar beshafqat bir inson qalbi,
Hasad-u nafratga to‘lgan yuz-afti,
O‘zgani qo‘rqitish bor dard-u g‘ami,
Sinoat-la o‘ralgan butun badani.*

*Aslida ko‘ylak bu bir temir mato,
Ilohiy qiyofa bor-yo‘g‘i niqob,
Hilviroq vujudda mehr-u ishq gado,
Yurak esa suvga tashna, korni och mirob.*
(Uilyam Bleyk — “Kechinmalar sadosi” (Ilohiy siyrat)

¹ **Alfons Bertilon** (1853–1914) — fransuz yuristi, sud identifikatsiyasi metodik tizimining ijodkori. Mazkur tizim antropometriya, tasviri qiyofa, signalitik fotosurat va alohida belgilarni hisobga olish kabilardan iborat. Bu tizim 1890-yildan e‘tiboran deyarli barcha mamlakatlarda qo‘llanilmoqda.

² **Uilyam Bleyk** (1757–1827) — ingliz shoiri va musavviri. Hayotlik paytida tanilmagan Bleykning ishlari bugungi kunda juda mashhur. U BBC 2002-yilda o‘tkazgan “100 eng buyuk britaniyaliklar” so‘rovida 38-o‘rinni egallagan.

MASH'UM SUHBATGA MUQADDIMA

So'zimni Gannibal Lekter bilan ilk marotaba uchrashgan chog'imni yodga olishdan boshlamoqchiman. 1979-yilning kuz faslida o'lamizda kasalchilik haqida xabar kelganligi tufayli Missisipi deltasida joylashgan uyimga qaytdim va u yerda qariyb o'n sakkiz oy turib qoldim. O'lgan vaqt mobaynida "Qizil ajdarho" asari ustida ishladim. "Rich" qishlog'idagi qo'shnimiz iltifot bilan bepoyon paxta dalasidagi uychasidan foydalani-shimga ruxsat berdi. Tunnarni, asosan, shu yerda o'tkazardim. Roman yaratishni o'zingiz ayni paytda ko'rib turgan narsani yozishdan boshlaysiz, so'ngra undan oldin va keyin nimalar bo'lganini qo'shib bayon etasiz. Missisipi shtatidagi "Rich" qishlog'ida ishlayotib, tergovchi Uill Grexemning bir oilaning barcha a'zolari o'ldirib ketilgan uyda marhumlarning oilaviy filmlarini tomosha qilib o'tirganiga ko'zim tushdi. O'shanda bu jinoyatlarni kim amalga oshirayotganini bilmasdim, biroq qotillikdan oldin va keyin nima yuz berganligining tagiga yetish uchun eshikni ochdim: ichkariga kirib uyni, jinoyat joyini ko'zdan kechirdim, lekin zulmatda o'tirgan Uilldek men ham deyarli hech narsa topa olmadim. Ba'zan tinnlari uychamdagi chiroqni yoqilgan holda qo'ldirib, dalalar bo'ylab kezardim. Har safar uzoqdan qaraganimda o'sha sur'iy xuddi dengizda qalqib turgan qayiqqa o'xshab ko'rinaridi. Tez orada paxta dalalarida

emin-erkin izg'ib yuruvchi yarim yirtqich itlar bilan yaqindan tanish bo'lib qoldim. Ularning ba'zilari yaqin-atrofdagi fermer xo'jaligi ishchilarining oilalariga tegishli bo'lsa-da, ko'pincha qorinlari uchun o'zlari qayg'urishiga to'g'ri kelardi. Yer batamom muzlab qolgan qahraton qish paytlari itlarga rahmim kelib, haftasiga 50 funtning¹ bahridan o'tishga va ularga ovqat berishga qaror qildim. Uzun-qisqa, katta-kichik itlar galasi doim menga hamrohlik qilishar, kechalari dalalarda yonimdan jilishmasdi, ko'rinmay qolsalar ham ovozlari eshitib turardim. Tevaragimda harsillab nafas olganча soqchilik qilishardi. Xonamda ishlayotgan chog'imda esa ayvonchada kutib o'tirishar va oy to'lganida vovullab xonish qilishardi.

Qoq yarim tunda nihoyasi ko'rinmaydigan dalaga qarab turib, jinoyat joyida nima yuz berganini ko'rishga yana bir bor jazm qildim va yozuv stolimdagi xira chiroqni olib, o'sha uyga yo'l oldim. Oyning g'ira-shira yorug'i ostida ko'zlarimga soyalardan boshqa hech vaqo ko'rinmadi. Bu yerda nimadir sodir bo'lganligini yana bir marotaba e'tirof etishning hojati yo'q edi. Ijod mobaynida uydirmalar to'qimayotganligingizga amin bo'lishingiz juda muhim, chunki yozuvchiga zarur barcha narsalar aslida mavjud: gap — uni topa bilishda. Uill Grexem ham qayerga borib kından maslahat so'rashni va yordam olishni yaxshi bilardi. Grexemning avvalgi ishida ancha xatoga yo'l qo'yganini, shunday bo'lsa ham o'zida mavjud eng samarali manbaga muro-

¹ **Funt sterling** (inglizcha: pound yoki pound sterling) — Buyuk Britaniya pul birligi. 1 funt sterling = 100 pens (1971-yilga qadar Funt sterling = 100 shilling = 240 pens bo'lgan).

jaat qilishni istamayotganligini bilib turardim. O'sha paytlarda kun bo'yi miyamda og'riqli xotiralar qayta tiklanar, kechqurunlari qalam tebratayotganimda Grexemga rahmim kelardi. Shunday qilib, ichki bir qo'rquv bilan ruhiy kasal jinoyatchilarni tekshirish uchun Baltimor davlat kasalxonasiga u bilan birga bordim. U yerda esa doktor Frederik Chilton degan bitta mahmadonaroq odamni deb asosiy ishimizdan butkul chalg'ib, ikki-uch kunimizni besamar o'tkazib yubordik. Chiltonni sodiq do'stlarim bo'lgan itlar qurshovida, xira chiroq lipillab turgan qorong'i xonamda yolg'iz qoldirib ketishni, o'zim esa ko'rinmas odam bo'lib, olib uni zavq bilan kuzatib turishni tasavvur qilib ko'rdim. Asarlarimdagi qahramonlarga ham shunday munosabatda bo'la-man: garchi ular bilan bitta xonada o'tirsam-da, taqdir-larini o'z qo'llariga topshirib, mendan zig'ircha yordam kutmasliklarini uqtiraman. Nihoyat, mahmadona Chilton-dan qutulib, Grexem ikkalamiz kameraga¹ yo'l oldik, u yerga kirishimiz bilan orqamizdan temir eshik qars etib yopildi. Uill Grexem va men Lekterning kamerasiga yaqinlashdik. Grexemning tusi o'zgarib ketgan edi, yuzida sal-pal qo'rquv alomatlarini sezdim. "Lekter uxlab yotgan bo'lsa kerak" — deb o'ylay boshlaganimda, u ko'zini ochmasdan turib Uill Grexemni hididan tanib oldi. Odatdagidek, Chilton, Grexem va boshqa xodimlar uchun ko'rinmas odam sifatida bir chekkada jimgina

¹ **Kamera** (lotincha: camera — gumbaz; xona, bo'lma) — ba'zi muassasalarda biror narsa yoki shaxs uchun mo'ljallangan maxsus xona, bo'lma (**asarda shu ma'noda**); 2) asbob, mashina, inshoot ichidagi atrofi berk bo'shliq; 3) shina yoki to'p qoplamasi ostidan joylashtiriladigan va ichiga havo damlanadigan rezina qobiq, g'ilof; 4) foto, kino yoki videoapparatning plastinka yoki plyonka qo'yiladigan ichki qismi yoki shunday apparatlarning qisqacha nomi.

turmoqchi edim, lekin Lekter huzuriga kelib tinchim buzildi. Lekter huzuriga kirgach, uning boshni rentgen¹ qilishayotgan paytda tinchlik bermay miyada aylana-veradigan o'y-xayollardek sinchkov nigohidan Grexem singari noqulaylik tuydim.

Grexem va Lekterning suhbat i jadal ketayotgan bir paytda shosha-pisha stol ustida turgan hamma narsaga muhim tafsilotlarni qayd qilib borishga urinardim. Suhbat va safar nihoyasiga yetguncha sillam qurib ketdi, qulog'im ostidan ruhiy kasalliklar shifoxonasining olamni buzadigan qo'ng'irog'i ovozi ketmas, "Rich"dagi uychem oldida qadrdon o'n uchta itim ko'zlarini yumib, oyga qarab uvullashgani unga jo'r bo'lardi. Ba'zi gaplarni eshitmay qolishimga sabab bo'lgan qamoqxona shovqini hamda ayanchli qichqiriqlardan xoli o'tirib hammasini yanada teranroq tushunish maqsadida Grexemning Lekterdan olgan intervyusiga qayta va qayta ko'z yugurtirdim. Mash'um jinoyatga kim qo'l urganini bilolmagan bo'lsam-da, birinchi marta qotilning kimligini aniqlab, uni topishga ishonch hosil qildim. Uning kimligi kitobdagi boshqalar uchun dahshatli, ehtimol, fojiali bo'lishiga ko'zim yetdi. Va shunday bo'ldi ham.

Yillar o'tib, "Qo'zichoqlar sukunati" asarini yozishni boshlaganimda, doktor Lekterning yana qaytib kelishi xayolimga ham kelmagan edi. "Qora yakshanba" filmidagi Dahliya Iyad obrazi menga juda yoqardi va o'zim ham shu singari kuchli ayolni bosh qahramon qilib

¹ **Rentgen** (nemis fiziki Rentgen (Rontgen) nomidan) — 1) rentgen nurlari bilan yoritib ko'rish, rentgen apparatida tekshirish; 2) rentgen apparati; 3) rentgen nurlari va gamma nurlarning doza birligi; 4) rentgen apparati rentgen nurlarini hosil qilish va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan qurilma.

yangi roman yozishni xohlardim. Shunday qilib, Klaris Starling obrazini yaratdim va hali yangi romanning ikki sahifasini ham yozib tugatmasimdan uning Lekter bilan ko'rishishi kerakligini his qildim. Klaris Starlingni qattiq yaxshi ko'rardim va u Lekter bilan uchrashganida biroz rashk ham qildim. "Gannibal" romanidagi voqealarni yozishga o'tirganimda, Gannibal meni esankiratib jilovni tamoman o'z qo'lga olib qo'ydi. Hattoki, voqealar qanday tus olib ketishini tasavvur qilib ma'lum vaqt asarni davom ettirishdan qo'rqib qoldim, Starlingdan xavotirlandim. Oxir-oqibat esa oliyjanoblik bilan ularni o'z erkiga qo'yib yuborib, voqealar rivojini Lekter va Klaris Starlingning o'zlari boshqarishiga qo'yib berdim.

Qadimda bir sulton shunday degan ekan: "Men lochin saqlamayman — ularning o'zi men bilan yashashadi".

1979-yilning qishida ruhiy kasal jinoyatchilar saqlanuvchi Baltimor davlat kasalxonasiga bordim, orqamdan o'sha tanish temir eshik yana qarsillab yopildi. Oldinda meni nimalar kutayotganini, taqdirlar murvatini siljitgan voqealar girdobida qolib qo'yishimni deyarli bilmasdim.

Tomas Harris, Mayami. 2000-yil yanvar.

BIRINCHI BOB

Grexem Kroufordni ummonga qaragan uyning deraza ostidagi ko'chma stolga taklif qildi va bir stakan yaxna choy uzatdi. Jek Krouford qadimiy ulug'vor uyga, uning quyosh nurlari ostida jilolanib turgan yog'och qoplamalariga tikilib qoldi.

— Ishdan chiqqan payting Maratondayoq senga yetib olsam bo'larkan. Hozir bu haqida gaplashishni istamayapsan, chog'i, deya gap boshladi Krouford.

— Men o'sha mavzuda umuman gaplashishni istamayman, Jek. Ataylab kelibsanmi, unda ishni tezroq tugataylik. Faqat fotosuratlar kerak emas. Agar o'zing bilan olib kelgan bo'lsang, jildning ichida turaversin. Molli va Uilli hali zamon qaytib kelishadi.

— Senga hozir nimalar ma'lum?

— "Mayami Herald" va "Tayms" gazetalarida o'qigan narsalarim xolos. Bir oy ichida Birmingem va Atlantada ikkita oila shafqatsizlarcha o'ldirilgan. Ikkala qotillik ham uyda sodir etilgan, holatlar juda o'xshash, — javob berdi Grexem.

— O'xshash emas, bir xil deyaver.

— Shu paytgacha nechta guvohdan ko'rsatma olindi?

— Bugun Atlantaga telefon qilgandim: "Sakson oltita ko'rsatma", — deyishdi. Lekin hech biridan naf chiqmaydi, chunki qotillik tafsilotlarini hech kim aniq bilmaydi. Qotil uydagi ko'zguni sindirib, shisha siniqlari yordamida murdalarni bo'laklab tashlagan, ammo buni hozircha sir tutamiz.

— Gazetalarda yana nimalarni o'qishga ulgurding?

— Uning tashqi belgilariga koʻzim tushdi. Jinoyatchi malla sochli, oʻngaqay, kuchli, shuningdek, oʻn birinchi oʻlchamli poyabzal kiyadi. Tugunlarni osongina yecha oladi. Jinoyat joyidan yupqa rezina qoʻlqopdan qolgan izlar topilgan.

— Bularni oldingi bayonotingda ham aytuvding-ku.

Krouford beparvo davom etdi:

— Biroq qulfni buzib kirish bobida uncha ustasi farangga oʻxshamaydi. Ikkinchi holatda, uyga shishakeskich va soʻrgʻich orqali kirgan. Yana bir narsa: uning qon guruhi — AB — musbat.

— U jarohat olgan ekanmi?

— Bilishimcha, yoʻq. Qon guruhini undan qolgan maniy¹ va soʻlak tahlili yordamida aniqladik.

Krouford tinch mavjlanayotgan ummonga qaradi:

— Uill, senga bitta savol bermoqchiman. Gazetalarni oʻqib borasan. Soʻnggi qotillik haqida televideniya ham xabar berildi. Ayt-chi, oʻshanda menga qoʻngʻiroq qilish fikri xayolingga kelmadimi?

— Yoʻq.

— Nima uchun?

— Birinchidan, Birmingem ishi boʻyicha tafsilotlar yetarli emas edi, u yerda deyarli hamma sababni: qasos, oilaviy mojaro va hokazolarni taxmin qilish mumkin edi.

— Yaxshi, shunday boʻla qolsin, lekin ikkinchisidan keyin nimaligini anglab yetgandirsan.

— Albatta. U savdoyi qotil. Oʻzim istamaganim uchun senga qoʻngʻiroq qilmadim. Jamoangda qanday odamlar borligini juda yaxshi bilaman. Sizlarning laboratoriyangiz — mamlakatda birinchi darajali. Garvardda Heymlih, Chikago universitetida Blum bor.

¹ **Maniy** (arabcha) — erkaklarning jinsiy bezidan ajralib chiqadigan suyuqlik; sperma.

Sen esa lan'ati qayiq motorlarini tuzatishdan bo'shamaysan.

Senga yordam berolmayman deb o'ylayman, Jek. Bu rejalar bilan boshimni qotirishni umuman istamayman.

Rostdan-a? Ammo sening yordaming bilan ikkitasini qamoqqa ravona qildik-ku.

Qanaqasiga mening yordamim bilan? Axir, hech qanday alohida ish ko'rsatmadim-ku. Hamma nima qilayotgan bo'lsa, shuni bajardim.

— O'zingni kamtar qilib ko'rsatmay qo'ya qol, Uill. Fikrlashing boshqalarnikiga o'xshamasligini yaxshi bilaman.

— Fikrlashim haqida gapirmagan bir sen qoluvding o'zi.

— Qo'ysang-chi, unaqa dema. Biz kabilar tushuna olmaydigan sir-asrurlaring talaygina.

— O'sha yerda dalillar bor edi, xolos. Shularga asoslanib topgandim, — deya qo'l siltadi Grexem.

— Albatta, ancha dalil-isbot bor edi. Gumonlanuvchilarni hibsga olganimizdan keyin ham anchasi topildi. Undan oldin esa qo'limizni burnimizga tiqib o'tiruvdik.

— Jek, bilasanmi, o'zingga kerak odamlar to'plangan ajoyib jamoang bor, ular turganda mening bor-yo'qligim bilinmaydi ham. Aynan shu kabi tashvishlardan xalos bo'lish uchun bu yerlarga bosh olib keldim.

— Bilaman. Oxirgi ishdan keyin ishdan ko'ngling sovib ketdi. Ammo, hozir ancha o'zingga kelib qolibsan.

— Hozirgi hayotimdan nolimayman. Gap meni qanday qilib ishdan chetlashtirishganida emas, o'shanda o'zingni ham obdan avra-astaringni ag'darishdi-ku.

— E'tiboring uchun, ahvolim senikidan yaxshiroq edi.

— Qisqasi, chekinishim sen o'ylagan sabablar tufayli bo'lmadi. Shunchaki ishdan ketishga qaror qildim. Sababini tushuntirish juda qiyin.

— Sen jasadlarni ko'rganing zahoti orqaga tisarilding, buni juda yaxshi tushunib turibman.

— Qaniydi, shunday bo'lsa. Ular-ku o'lik edi, qiynalmay tekshiruv olib borishing mumkin. Eng qiyini — kasalxonadagilarni va jabrlanganlarni so'roq qilish. Keyinchalik ulardan to'plagan tafsilotlarni xohlasang ham esingdan chiqarolmay yurasan, doimo miyangda aylanib yuradi. Men endi bu ishga mos kelmayman. Shuni yodda tut, Jek, endi sizlarning ishlaringiz bilan boshimni zig'irchayam og'ritmayman. Yetar.

— Uill, ular shunchaki murdalar-ku, boshqa hech narsa yo'q bo'lsa, — dedi Krouford ehtiyotkorlik bilan. Grexem so'zlar ekan. Jek Krouford unda o'z nutqining maromi va uslubini tanidi. Ilgarilari ham Grexemning boshqalarning qiliqlarini, jonli suhbat paytida suhbatdoshining gapirish uslubini o'zlashtirib olishini ko'p kuzatgan edi. Dastlab Krouford bu: "Suhbatdoshni suhbatga chuqurroq jalb qilish uchun birorta uslub bo'lsa kerak. Grexem bu ishni ataylab qilyapti", — deb o'ylagandi. Keyinchalik esa Grexemning muloqotdagi sheriklariga beixtiyor taqlid qilayotganini anglab yetdi, biroq buni o'ziga sezdirmagandi.

Krouford ko'ylagi cho'ntagiga qo'lini tiqib, ikkita fotosurat oldi va stol ustiga qo'ydi:

— Bu odamlarning hammasi o'lgan.

Grexem Kroufordga tikilganча biroz ikkilanib turdi-da, oldidagi fotosuratlarga qaradi. Bir suratda katta sunka va gilanchani sudrab, sohil bo'ylab ketayotgan ayol bor edi. Uning izidan uchta bola va o'rdak ergashgan edi. Ikkinchi fotosuratda tug'ilgan kun torti atrofida jamuljam bo'lgan baxtiyor qila tasvirlangan edi. Grexem o'ttiz soniya ichida rasmlarni o'rganib chiqdi, keyin

ularni chetga surib, uzoq-uzoqlarga qaradi. Sohil bo'yida bir bolakay qumdan nimanidir izlar, tepasida esa nam sochlari yelkasiga tushgan bir ayol qo'llarini beliga tirab uni kuzatib turar, uning oyoqlariga dam-badam to'lqin urilardi. Uill — xuddi oldidagi mehmonni batamom esidan chiqargandek — Molli va Uilliga ancha tikilib qoldi. Hozircha ishlar Krouford kutganidek ketmoqda, garchi o'zi buni oshkor qilmaslikka tirishsa ham uning yuzida mamnunlik hukmron edi. Grexem ushbu suhbat uchun joy tanlashdan boshlab boshqa tafsilotlarga qanchalik puxta o'y-lab chiqilganligini bilmay qo'ya qolsin. O'zi harakat qilishiga qo'yib beradi.

Shu payt qayerdandir uchta bahaybat it paydo bo'lib, ular o'tirgan stol atrofidagi qumga irg'anishdi.

— Ey Xudo, nima bular? — xitob qildi Krouford.

— It bo'lsa kerak. Bu yerga dam olishga keluvchi odamlar doim kichkina kuchukchalarini tashlab ketishadi. Ba'zi birlarini tanishlarimga hadya qilib yuboraman, qolganlari sandiroqlab yurib, ulkan yovvoyi itlarga aylanib ketishadi.

— Ular och qolgan itlarga umuman o'xshamaydi-ku.

Molli hammasini boqadi. U boshpanasiz itlarga befarq qaray olmaydi.

— Bu yerda, rostdan ham, ishlaring beshga o'xshayapti — yoningda Molli bor, bola bor. Uning yoshi nechada?

— O'n birda.

— Kelishgan yigitcha bo'libdi. Bo'yi senikidan ham uzun bo'ladi hali.

Grexem bosh irg'adi.

— Otasi novcha edi. Ha, oila bobida omadim keldi, o'zim ham bilaman buni.

— Men nafaqaga chiqqanimda, Florida shtatidan xuddi shunday uy olaman. To's-to'polon shahar hayoti xotinim va

mening ham jonimizga tegib ketdi. Ustiga-ustak. Fillisning bar-cha tanishlari Arlingtonda yashaydi.

— Fillisga kasalxonaga yuborgan kitoblari uchun minnatdorchilik bildirnoqchi edim, lekin imkonim bo'lmadi. Unga mening nomimdan katta rahmat aytib qo'y.

— Albatta, yetkazaman.

Ikkita qushcha biron ozuqa ilinjida stolga qo'ndi-da, hech nima topolmasdan umidsiz qaytib uchib ketdi. Buni kuzatib o'tirgan Krouford gap qotdi: •

— Uill, tushunishimcha, bu qotil oy fazalariga¹ qarab ish qiladi. Birmingemdagi Jekobilar oilasi 28-iyunga o'tar kechasi, ya'ni oy to'lgan paytda o'ldirilgan. Atlantadagi Lidsning o'ldirilishi esa yangi oy chiqishidan bir kun oldin, 26-iyulda sodir bo'lgan. Mabodo bu muvofiqlikka ishonadigan bo'lsak, uning yana qachon paydo bo'lishini chama bilan bilib olish mumkin. Shu yerda jimgina o'tirib, "Mayami Herald" gazetasida navbatdagi qotillik haqida xabar berilishini sabr bilan kutib o'tirishingga ishonmayman. Albatta, senga buyruq berishga haqqim yo'q, lekin menga ayt-chi, Uill, ozgina bo'lsa ham hurmatim bormi sening oldingda?

— Ha.

— Unda aminmanki, agar bizga yordam berishga rozi bo'lsang, qotilni topish uchun haqiqiy inkoniyat paydo bo'ladi. Jin ursin, Uill, ishni o'z qo'lingga olib, ishga kirishsang-chi! Atlanta va Birmingemga uchib, qotilning izini olib, keyin Vashingtonga o'tib ishlayverasan. Sen hech nima yo'qotmaysan, shunchaki vaqtincha yordam berasan, xolos.

¹ **Faza** (*yanoncha*: phasis — namoyon bo'lish, paydo bo'lish) — 1) tabiat yoki jamiyadagi biror voqea-hodisa, jarayon va shu kabilarning rivojlanishidagi muayyan payt, muddat, davr; 2) biror narsaning shakli, holati yoki harakati o'zgarishidagi ma'lum haq qiluvchi payt, davr (**asarda shu ma'noda**).

Grexem indamadi. Krouford ham jim bo'ldi. Bu vaqt ichida to'liqlar qirg'oqqa besh marta urildi. Nihoyat, Krouford o'rnidan turib, paltosini yelkasiga tashladi:

— Suhbatimizni tushlikdan keyin davom ettiramiz.

— Biz bilan qolib ovqatlanaver.

Krouford boshini chayqadi:

— Yo'q, keyinroq qaytib kelarman. Mehmonxonaga qo'ng'iroq qilib qo'yishim kerak, undan boshqa ham bir nechta qo'ng'iroq qiladigan joylarim bor. Ammo, baribir, taklif uchun Molli-ga rahmat deb qo'y.

Krouford ijaraga olgan mashina havoda chang bulutini ko'tarib daraxtlar ustini qopladi. Grexem uni kuzatgach, yana boyagi joyiga kelib o'tirdi. Ichki sezgisi unga bu Shugarlof sohilidagi sokin hayotining so'nggi kuni ekanligini aytib turardi. Oxirigacha ichilmagan choy stakanlardagi muzni asta eritar, qizg'ish qog'oz sochiqlar shamolda gir aylanar, sohil chekkasida Molli va Uilli nimanidir qidirar edi.

* * *

Shugarlofda qon rangi kabi qip-qizil quyosh asta-sekin botib bormoqda edi. Yuzlarida quyoshning so'nggi nurlari o'ynayotgan Uilli Grexem va Molli Foster Grexem qirg'oq suvida yuvilaverib oqarib ketgan yog'och skameykada yonma-yon o'tirishardi. Molli uning qo'lidan ushlab gap qotdi:

Krouford bu yerga kelishdan oldin do'konimga kirib o'tdi. Uyga qanday borishni so'radi. Senga qo'ng'iroq qilib tusha olmadim, hech bo'lmaganda, bir marta telefonni ko'tarishing kerak edi. Keyin Uilli bilan uyga yaqinlashganimizda, uning mashinasi turganini ko'rib sohilga qarab ketdik.

U yana boshqa narsa ham so'radimi?

— Ishlaring qanday ketayotganini so‘radi.

— Nima deb javob berding?

— Ahvoling yaxshiligini va seni tinch qo‘yishini aytdim. Unga sendan nima kerak ekan o‘zi?

— Tergov hujjatlarini o‘rganishimni istayapti. Bilasan-ku, Molli, men sud ekspertizasi¹ bo‘yicha mutaxassisman. Diplomimni ko‘rganding.

— Ha. Uni devor orasidagi teshikka tiqib qo‘yuvding. Agar avvalgi hayotingni, chindan ham, qo‘msagan bo‘lsang, menimcha, bu haqda ertaroq aytarding. Sen ishingdan butkul uzoqlashib, hammasini unutding, tinchlanding va butunlay boshqa odamga aylanib qolding. Bundan men juda xursandman.

— Yaxshi yashayapmiz-a? Nima deding?

Mollining sinchkov qarashlari uning yana nimanidir bilishni istayotganligini zohir etdi. Ammo Grexem gap boshlamasidan oldin, o‘zi yana gapni ilib ketdi:

— Kroufordga bergan yordaming o‘zingning zararingga ishladi. Xavotir olmay qo‘ya qol, u sensiz ham hamma ishni bemalol amallaydi. Hukumat Federal qidiruv byurosi nima so‘rasa, o‘ylab o‘tirmay yordam beradi. Shunday ekan, bizni tinch qo‘yishsin.

— Krouford senga hech narsa tushuntirmadimi? Ikki marta Federal qidiruv byurosi akademiyasidagi o‘qituvchilikdan voz kechib, amaliy ish bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganimda, aynan uning qo‘l ostida ishlagan edim. O‘sha amaliyotda ko‘rib chiqqan ikkala ishimiz ham eng sirli jumboq bo‘lib, Jek ular bilan ko‘p yillar davomida shug‘ullanib kelayotgan edi. Endi xuddi o‘sha turkumga mansub yana bir ishni yechishga urinishmoqda.

¹ **Ekspertiza** (fransuzcha: expertise -- tajribali; sinalgan) -- qiyin yoki chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirish o‘tkazuvchi mutaxassislar hay’ati.

Odamxoʻrlarning qotillik ishi juda kam uchraydigan holat. Krouford bu borada tajribam borligini yaxshi biladi.

— Ha, senda katta tajriba borligi haqiqat.

Grexemning koʻylak tugmalari ochiq turgani sababli Molli-ning koʻzi uning qorni atrofida, quyoshda kuygan terisidagi oppoq chandiqqa tushdi. Chandiq belning chap tomonigacha tushgan va oʻng tomonga koʻtarilib koʻkragigacha davom etgan edi. Bu chandiq Grexemning Molli bilan uchrashuvidan bir yilcha oldin, Gannibal Lekterning oʻtkir pichogʻi qoldirgan jarohat izi edi. Uill oʻsha paytda arang tirik qolgan edi. Matbuot tomonidan “Kannibal¹ — Gannibal” deya nomlangan doktor Lekter Grexemning bevosita yordami bilan Federal qidiruv byurosi tomonidan hibsga olingan ikkita ashaddiy qotildan bittasi edi. Gannibal tomonidan yaralangandan soʻng Grexem kasalxonada uzoq vaqt yotgan va keyinchalik Vashingtondagi xizmatini tark etib, Floridaning Maraton portida dvigatel mexaniki boʻlib ishlay boshlagandi. Ushbu kasb unga yoshligidan tanish edi. Mollini uchratib, uning Shugarlof sohilidagi shinam uyiga koʻchib oʻtguncha tunlari kemalar saqlanadigan joydagi treylerda² uxlab yurardi.

Grexem Mollining qoʻllarini tutib, koʻzlariga tikildi:

— Molli, Krouford meni eng xavfli qotillarni tutish uchun yaratilgan deb oʻylaydi. Uning yo mendan boshqasi bilan ishni eplay olmasligiga koʻzi yetgan, yoki irim qilyapti.

— Irimlarga ishonasanmi?

Grexem toʻlqinlar ustida ketma-ket charx urayotgan uchta

¹ **Kannibalizm** (*fransuzcha*: cannibalisme < *ispancha*: Canibal — odamxoʻr) — 1) odam goʻshtini odam yeyishdan iborat, eng qadimgi, ibtidoiy odamlarga xos hodisa; 2) hayvonot dunyosida muayyan turga mansub hayvonlarning bir-birini yeyish hodisasi.

² **Treyler** (*inglizcha*: trailer < trail — tortmoq, sudramoq) — oʻta ogʻir, odatda 100 tonnagacha boʻlgan yaxlit yuklarni tashishga moʻljallangan tirkama transport vositasi.

pelikan¹ qushining parvozini kuzatib turdi-da, gapida davom etdi:

— Gap shundaki, aqlli va ayyor qotilning, ayniqsa sadistning² iziga tushish juda qiyin. Avvalo, ular koʻzga koʻrinarli iz qoldirmaydi, faqat vaqt yoʻqotganing qoladi. Ikkinchidan, ushbu turdagi jinoyatchilar guvohlarni tirik qoldirmaslikka harakat qiladi. Koʻpgina hollarda asosiy vaqt va kuch gumon qilinuvchini hibsga olishga emas, balki guvohlar bilan ishlashga ketib qoladi. Shunday holatlar boʻladiki, jinoyatchi oʻzining nima qilayotganini toʻliq anglamaydi ham. Mavjud dalillardan foydalanib, qolganini taxmin qilish lozim, xolos. Ishda qotildek fikrlab, nimanidir bilib olishga urinishimiz kerak boʻladi.

— Unda oʻsha jinoyatchini topib hibsga ol. Lekin bu ishga bosh qoʻshsang, yana oʻtgan safargidek holat takrorlanishidan xavotirlanyapman. Qotilni quvishingdan ham koʻra aynan shu jihat meni tashvishga solyapti.

— Molli, u meni hech qachon koʻrmaydi, hatto ismimni ham bilmaydi. Uni hibsga olish uchun men emas, politsiya bora-di, agar uni topa olsalar, albatta. Kroufordga bu ish boʻyicha tergov olib borishda yangicha nuqtai nazar kerak boʻlyapti, xolos.

Molli suv yuzasiga yoyilib ketayotgan qizgʻish qon rangli quyoshni va yengil suzib yurgan bulutlarni tomosha qildi. Grexemga uning boshini shunday goʻzal tarzda burishi juda yoqardi, bu uning qiyofasiga oʻzgacha ruh bagʻishlardi. Rafiqasining nozik boʻyniga tikilib qolgan Grexem u bilan oʻtkazgan shirin damlarini eslab, yutoqib qoʻydi va soʻradi:

¹ **Pelikan** — saqoqush, birqozon (tushugʻi ostida meshkobi — xaltasi boʻlgan yirik suv qushi).

² **Sadizm** — *tor maʼnoda*: jinsiy qoniqish, jinsiy aloqa qiluvchi sherigiga jinsiy yaqinlik vaqtida iztirob berish va jismonan ogʻriq yetkazish bilan ifodalanadi. “Sadizm” atamasi oʻz asarlarida koʻplab jinsiy jinoyatlarni tasvirlagan fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740–1814) nomidan olingan. **Keng maʼnoda** — birovni azoblab rohatlanish, birovning ozor chekishidan lazzatlanish.

Xo'sh, nima qilishni maslahat berasan?

Allaqachon hamma narsani mensiz hal qilib qo'yibsan-ku. Agar bu yerda qolsang va o'sha qotilliklar to'xtamasa, bizning ham hayotimiz zaharlanadi. Shuning uchun: "Mening javobim sen uchun hech qanday ahamiyatga ega emas", — deb o'ylayman.

— Agar mening o'rnimda bo'lsang, nima qilgan bo'larding?

— "Men bilan shu yerda qol", — degan bo'lardim. Men va Uilli bilan, agar u sen uchun zarracha ahamiyat kasb etsa. Ammo ko'z yoshimni artib, senga ro'molcha silkitib qo'yishim kerakligini, vazifani uddalay olmagan taqdiringda ham oqilona tanlov qilganingga amin bo'lishimni, sovuq karavotning bir chekkasida yolg'iz uxlashimga to'g'ri kelishini ham tushunib turibman.

— Men ketishga shoshilmayapman.

— Unday qila ko'rma. Boraver. Men xudbinman-a, Uill, shundaymi?

— Menga farqi yo'q.

— Menga ham. Garchi buni, haqiqatan, ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgandan keyingina his qilish mumkin bo'lsa ham, shu yer men uchun eng xotirjam joy. Halovatning qadriga yet, Uill.

Uill bosh irg'adi.

— Men shunchaki hammasini yo'qotib qo'yishdan juda qo'rqaman, — dedi Molli.

— Xavotir olma. Hech narsa yo'qotmaymiz.

Tezda atrof qorong'ilikka chulg'andi va janubiy g'arbdan Hulkar yulduzi osmonga ko'tarildi. Ular uyga qaytar chog'ida osmonga yorug' oy ham chiqdi. Ko'lmakda suvga solib qo'yilgan chuvalchangni yeb qo'yib qarmoqqa ilingan baliqlar umidsiz tipirchilardi.

Kechki ovqatdan keyin Krouford qaytib keldi. U, chamasi, rasmiyatchilikdan qochishga harakat qilgan, chog'i: yenglarini shimarib olgan, galstuki va paltosini yechib tashlagan edi. Molli ko'rinishi xuddi ayyor maymunni eslatib yuboruvchi Kroufordga va uning nozik oppoq qo'llariga nafrat bilan qarab qo'ygach, qahva olib kelib, konditsionerni yoqdi. Grexem Uilli bilan birga itlarga ovqat berishga ketgan edi. Molli miq etmasdan devordagi rasmlarni tomosha qilib o'tirdi.

— Uill ancha o'ziga kelib qolibdi, Molli. Ikkalangizning ham ko'rinishlaringiz ajoyib: quyoshda qorayib nozikkina bo'lib qolibsizlar, — dedi Krouford.

— Nima demay, baribir, Uillni olib ketasan, shundaymi?

— Ha, shunga majburman. Tushun, boshqa ilojim yo'q. Ammo qasam ichamanki, uning xavfsizligini ta'minlash uchun qo'limdan kelganicha harakat qilaman. U juda o'zgargan. Turmush qurganingiz ham yaxshi bo'libdi.

— Uillning sog'ligi endigina tiklandi. Qo'rqinchli tushlarni ham ko'rmay qo'ydi. Oldin itlarning jinnisi edi, tinmay ular haqida gapirardi, hozir esa shunchaki ularni ovqatlantirish bilan cheklanyapti. Jek, Uillning chin do'sti bo'lsang, nega uni holi-joniga qo'ymayapsan?

— Chunki uning peshonasiga o'z sohasining eng yaxshi mutaxassisi bo'lish yozilgan. U oddiy odamlardek fikrlamaydi va hech qachon tuzoqqa tushmaydi.

— Uning aytishicha, dalillarni tekshirib berishni so'ragan ekansan.

— To'g'ri, men dalil-isbotlar bilan ishlay oladigan undanda kuchliroq mutaxassisi bilmayman, lekin uning yana bir ajoyib xususiyati bor: u tengsiz tasavvurga ega va o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yib ko'rishi mumkin. Lekin bu xislati Uillning o'ziga yoqmaydi.

— Senga ham yoqmagani bo'lardi. Jek, menga bitta narsani va'da ber. "Uning ishga chuqur sho'ng'ib ketishiga yo'l qo'ymayman", — deb qasam ich. Agar jangga o'zi kirishadigan bo'lsa, u o'lib qoladi.

— Qo'rqma, u sahna ortida bo'ladi, senga va'da beraman.

Grexem itlarni ovqatlantirib kelgach, Molli unga narsalarini yig'ishtirishda yordam berdi.

IKKINCHI BOB

Uill Grexem Charlz Lids o'z oilasi bilan yashagan va vafot etgan uyni sekin aylanib o'tdi. U mashinasini ikki uy narida to'xtatdi va yoz oqshomining iliq, xushbo'y havosidan nafas olib, Charlz Lidsning uyi tomon yurdi. Uyning derazalaridan yorug'lik ko'rinmas, faqat hovlidagi yolg'iz chiroq yonib turardi. Qo'lidagi jildga Atlanta politsiyasidagi izquvarlarining hisoboti solingan edi. Grexem Kroufordga jinoyat joyiga yolg'iz o'zi borib ko'rishini aytib, bu istagini uyda ortiqcha odamlar borligi uni chalg'itishi mumkinligi bilan izohlagandi. Aslida esa, uning boshqa bir shaxsiy sababi bor edi: Grexem hali qanday qilib ish olib borishini bilmas, unga savol nazari bilan tikilib turuvchi odanning esa umuman keragi yo'q edi. O'likxonada hammasi yaxshi o'tdi. Ikki qavatli g'ishtin bino ko'chaning orqa qismida, o'tmonzorga tutash hududda joylashgan edi. Grexem daraxtlar ostidan binoga uzoq tikilib turdi, jasoratini to'plashga harakat qildi. Miyasining qorong'i burchaklaridagi kumush mayatnik¹ bonj urib turar, u o'sha mayatnikning to'xtashini kutardi.

¹ **Mayatnik** — 1) yuqori uchi qo'zg'almas nuqtaga osib qo'yilgan, pastki uchiga og'irlik o'rnatilgan tebranuvchi sterjen; 2) qo'l vayon soatlarining yurishini muntazamlatib turuvchi, o'z o'qi atrofida goh chap, goh o'ng tomonga bir tartibda tebranib tashlanadigan murvat.

O'tib-qaytib yurgan qo'shni uylarda yashovchi odamlar uyga tezgina qarab qo'yib, ko'zlarini olib qochishardi. O'lik chiqqan joy ularning ko'ziga xuddi xiyonatkor odamdek xunuk ko'rinardi. Mash'um uy faqat yosh bolalar va begonalarni qiziqtirardi, xolos. Derazalardagi ko'tarib qo'yilgan jalyuzani¹ Grexem yaxshilik alomati deb hisobladi, chunki bu holat uy hali qarindoshlar hujumiga uchramaganini anglatardi. Marhumning qarindoshlari odatda pardalarni tushirib qo'yardi. Uill iloji boricha shovqin qilmaslikka va qo'ldiroq yoqmaslikka harakat qilib, hovlini aylanib o'tdi, yo'lida ikki marta to'xtab atrofga quloq tutdi. Atlanta politsiyasi uning tashrifi haqida bilar edi, ammo qo'shnilarning hech narsadan xabari yo'q edi. Ular marhum Lidslar xonadonida yurgan odamni, albatta, payqashar, hattoki knga qarata o'q uzishlari ham mumkin edi.

Hovliga qaragan deraza orqali barcha xonalar ko'rinib turardi. Uill eshik oldidagi fonusning xira yorug'ida mebellarni ko'rdi va uyning orqa tomonidagi ayvon eshigiga Atlanta politsiyasi tomonidan urilgan politsiya muhrini sindirib, ichkariga kirdi. Havodan yasmin² hidi anqir edi. U ayvondan o'tdi, undan keyingi oshxona eshigining siniq oynalari yig'ib olingan va o'rniga yupqa yog'och yog'och taxtalar qistirilgan edi. Uill qo'ldiroq yorug'ida o'ziga berilgan kalit bilan eshik qulfini ehtiyot bo'lib ochdi. Ayni damda u besh kishi o'ldirilgan uyning chirog'ini yoqib, xuddi rasmiy xodimlardek Federal qidiruv byurosining yaltiroq nishonini ko'rsatib o'zini tanishtirishni qo'msadi. Biroq unday qilmadi — qorong'i oshxonaga kirdi-da, stolga cho'kdi. Gaz plitasi ustidagi ikkita ko'kish rangli chiroq xira nur taratib turardi. Uill yangi yuvilgan mebel va olma hidini tuydi.

¹ Jalyuza (*fransuzcha*: jalousie — deraza eshigi; darparda) — ochilib yopiladigan parallel plastinalardan tuzilgan parda, to'siq (havo va yorug'lik oqimini rostlashga xizmat qiladi).

² Yasmin, yosuman — xushbo'y, oq, sariq, moviy to'p gulli manzarali buta.

Shu payt birdan termostat¹ jiringlab, konditsioner ishlab ketdi va izquvar beixtiyor titrab ketdi. Ilgari uni uncha-muncha narsa bilan qo‘rqitib bo‘lmasdi, bu safar ham shunday bo‘ldi. Uill shunchaki cho‘chib ketgan va darhol o‘zini tutib olgan edi. Avvallari shunday vaziyatlarda ko‘rish va eshitish qobiliyatlari o‘tkirlashib ketar, lekin tili aylanmas va gapirganda ham og‘zidan qo‘pol so‘zlar chiqardi. Biroq endi bu yerda xumordan chiqquncha so‘kish uchun bironta ham tirik jon mavjud emasdi. Qotil uyga oshxona eshigi orqali kirgan va o‘n birinchi o‘lchamdagi oyoq izlarini qoldirgan. Zulmat ichida o‘tirgan Uill ko‘ylagini o‘sha qonxo‘r iskab ko‘rayotgandek g‘oyibona jirkanchlikni his qildi.

U o‘tgan kunni mahalliy zo‘ravonlik bo‘yicha jinoyatchilik bo‘limi hisobotini o‘rganishga sarflagan edi. Ayni damda voqea joyiga birinchi bo‘lib kelgan politsiya xodimlarining pechka ustidagi ventilyatsiya² qopqog‘i o‘shanda ochiq holda bo‘lganligi haqidagi ko‘rsatmasini esladi, hozir esa u yopiq edi.

Gaz plitasi yonidagi devorga bir necha kulgili yozuvlar yozib tashlangan edi. Birinchi jumla “Sevgi-muhabbat keladi-yu ketadi, lekin ovqatlanishga ehtiyoj doimiydir” degan gapdan, ikkinchisi esa “Hamma do‘stlarimiz eshikdan kirishlari bilan o‘zlarini yoqimli hid taralayotgan oshxonamizga uradi, chunki uyimizdagi eng zo‘r joy shu yer” dan iborat edi. Grexem soatiga bir qarab qo‘ydi: o‘n bir yarim bo‘libdi. Patologning³ so‘zlariga ko‘ra, Charlz Lids oilasining barcha a‘zolari kechki o‘n bir va

¹ **Termostat** (termo. + *yunoncha*: statos — tik turuvchi, qo‘zg‘almas) — chegaralangan hajmlarda (termik pech, sovitkich va shu kabilarda) haroratni hamisha bir xilda saqlab turadigan uskuna.

² **Ventilyatsiya** (*lotincha*: ventilatio — sovitish, shamollatish, yelpish, sovurish) — turli sistema va moslamalar yordamida binolar havosini yangilash, tozalash; 2) bino havosini yangilash, tozalash, shamollatish uchun qurilgan moslama yoki moslamalar tizimi.

³ **Patolog** (pato. + *yunoncha*: logos — bilim, tushuncha) — organizmdagi kasallik jarayonlari va holatlarini, kasallikning paydo bo‘lish sabablarini va oqibatini o‘rganadigan shifokor.

ertalabki bir oraliq'ida o'ldirilgan. Izquvar holatni jonliroq tasavvur qila boshladi:

Shunday qilib, jinoyatchi uyga kirdi deylik. U tashqaridagi eshikka sim tiqib, ayvonni oshxonadan ajratib turgan oynali eshik tomon sirg'alib kirgan. Qo'lehiroq yorug'ida cho'ntagini kavlab, yozuv stoliga biriktirib qo'yiladigan qalamtaroshning bir qismi bo'lgan duma-loq so'rg'ichni olgan, yog'och eshikning pastki qismidan egilib kirayotganida ichkariga bir qarab olish uchun yana boshini ko'targan va tilini chiqarib, so'rg'ichni tili bilan yalagan hamda uni eshikka mahkam bosgan. Kichkina shisha kesuvchi moslamani olib, eshikni asta-sekinlik bilan kesa boshlagan. Kesilgan shisha tushib ketmasligi uchun bir qo'li bilan so'rg'ichni ham ushlab turgan. Aylana emas, tuxumsimon shaklida kesilgan shisha bo'lagini tortib olib, irg'itganida singan shisha tovushi eshitilgan. Qotil unda qolgan so'lak izlariga e'tibor ham bermagan. Qo'l-qopli qo'lini teshikka tiqib, qulfni paypaslab topgan va sekin eshikni ochib, to'g'ri oshxonaga kirgan. Ichkari ancha salqin bo'lgan.

Grexem ikkita bosh og'rig'ini qoldiradigan hapdorini birdan ichib yubordi. Cho'ntagiga g'ijimlab solib qo'ygan sellofan o'rami yoqimsiz shitirladi. Qo'lehiroqni qo'lida tutgancha mehmonxonadan o'tdi. Bu yerga kelmasidan oldin uyning tuzilishini o'rganib chiqqan bo'lsa ham zinapoyani qidirib, adashib ketdi. Yuqoriga eltuvchi zinalar umuman g'ichirlamadi va u er-xotinning yotoqxonasi oldidan chiqdi. Nimqorong'i xonada joylashgan yotoq stolidagi soat ayni vaqtni ko'rsatib turar, hammom

chilpi yonidagi tokchada to‘q sariq rangli tungi chiroq yonib turgan edi. Uillning dimog‘iga misnikiga o‘xshash o‘tkir qon hidi urildi.

Uning zulmatga allaqachon ko‘nikkan ko‘zlari xonani endi yaxshiroq ko‘rayotgan edi. Bunday yorug‘lik bilan qotil karavotning qaysi tomonida janob Lids va qaysi tomonida uning xotini uxlayotganligini hech bir qiyinchiliksiz ajrata olgan. Karavotga yaqinlashgach, janob Lidsning sochlaridan ushlab, pichoqni tomonog‘iga tirashi oson kechgan. Keyin-chi? Orqaga qaytib, xonadagi chiroqni yoqqan va Lids xonimga o‘q uzgan. Grexem chiroqni yoqdi. U ko‘z tashlagan hamma joyda: devorlarda, polda, to‘shakda qon dog‘lari qotib qolgan edi. Qurbonlarning o‘lim oldidagi so‘nggi faryodlari qulog‘iga chalinganday bo‘ldi. Har xil qichqiriqlardan uning miyasi g‘ovlab ketdi va hammasi o‘z o‘rniga tushguncha pol ustida biroz o‘tirib qoldi.

Atlanta politsiyasini xonadagi qon dog‘larining ko‘pligi va har xilligi hayratga solib qo‘ygan edi. Jasadlarning karavotdan topilganligi boshqa joylarda qolgan qon izlariga mos kelmasdi. Dastlabki taxminlarga ko‘ra, qotil Charlz Lidsga qizining xonasida hujum qilgan va o‘sha yerdan jasadni yotoqxonaga sudrab kelgan. Biroq dog‘lar o‘rni yaxshilab o‘rganilgach, bu taxmin rad etildi. Qotilning xonalar bo‘ylab harakatlanish yo‘nalishi haligacha aniqlanmagan edi. Uill murdalarni yorib ko‘rish va laboratoriya tekshiruvidan olingan natijalar yordamida aslida qanday bo‘lganligini tasavvur qila boshladi. Dastlab qotil karavotga yaqinlashib, chuqur uyquga ketgan janob Lidsni bo‘g‘izlab tashlagan, keyin esa chiroqni yoqqan. Chunki uning qo‘lqopida topilgan janob Lidsga tegishli soch tolalari chiroqyoqqichning yuzasidan ham topilgan edi. Shundan so‘ng u o‘rnidan turishga intilgan Lids xonimga qarata o‘q uzib, bolalar yotgan xonaga yo‘l olgan. Lekin hali joni uzilmagan janob Lids bolalarni qutqarish

uchun sudralib uning izidan ketgan va yo'lda juda ko'p qon yo'qotgan. Qizining xonasiga arang yetib borgach, qotil uni qattiq itarib yuborgan va Lids o'sha yerda jon bergan. Bolalardan bittasi to'shagida otib o'ldirilgan, ikkinchisi ham to'shagidan topilgan bo'lsa-da, sochida chang izlari qolgan edi. Politsiya uning karavoti tagidan tortib olib o'ldirilganligini ta'kidladi. Oilaning Lids xonimdan boshqa barcha a'zolari jon bergach, qotil iziga qaytgan.

Yotoqxonadan shisha idishlar va oynalarning chil-chil singan ovozi biroz vaqt eshitilib turib keyin batamom tingan. Grexemning qo'lidagi jildda murdalarni yorib ko'rish natijasida olingan tahlillar bor edi, ularga binoan o'q Lids xonimning kindigidan kirib bel umurtqasiga qadalib qolgan, lekin u bo'g'ib o'ldirilgan edi.

O'q teggan paytda ayolning tanasida oshib ketgan serotonin¹ va istamin² moddalari uning yaralanganidan keyin ham kamida besh daqiqa yashaganligini tasdiqladi. Tahlil istamin ko'rsatkichi serotoninnikidan ancha baland bo'lganligini ko'rsatdi, shu bois u ko'pi bilan o'n-o'n besh daqiqa yashay olgan, xolos. Lids xonimning boshqa jarohatlari tibbiyot ekspertizalari tomonidan uning tanasi yorib ko'rilishidan qolgan izlar edi.

Qiziq, agar aksar jarohatlari operatsiya stolida yetkazilgan bo'lsa, qotil ayolning o'limigacha nima bilan band bo'lgan? Grexem ajablandi. Janob Lids bilan kurashib, bolalarni o'ldirgunicha bir daqiqacha vaqt o'tgan bo'lishi mumkin. Keyin oynalarni sindirgan. Undan keyin-chi?

¹ **Serotonin** — biologik faol modda. Odam va hayvonlar qoni hamda to'qimalarida bor. Serotonin tomirlarni toraytiradi, markaziy asab tizimi hamda hazm qilish, ajratishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, serotonin almashinuvining buzilishi miokard infarkti, yara kasalliklari va ba'zi ruhiy kasalliklarga sabab bo'ladi.

² **Gistamin** — to'qima gormoni bo'lib, kuchli biologik ta'sirga ega. Hayvonlar va odamning turli a'zo va to'qimalarida nafaol shaklda bo'ladi. Mayda qon tomirlarni kengaytirib, qon oqishini tezlatadi. Gistamin qon tomirlarning spastik qisqarishiga qarshi dori.

Grexemdan oldin Atlantadan kelgan mutaxassislar jinoyat sodir etilgan joylarni puxta o'rganib chiqishgan, butun uyni ap'dar-to'ntar qilishgan, har bir buyumni tekshirib, suratga olib chiqishgandi. Hatto hammomdagi jo'mraklargacha yechib olishgan. Shunga qaramay Grexemning o'zi ham tekshiruv o'tkazishga qaror qilgan edi.

Politsiya olgan fotosuratlar va choyshabda ajratib ko'rsatilgan shakllar yordamida u jasadlarning qanday holatda topilganligini tasavvur qildi. Choyshablar ustidan to'pponchadan o'q uzilganda qolgan nitrat¹ izlari topilgan: demak, ular o'q uzilgan joyning o'zida vafot etishgan. Ammo, uyning deyarli hamma joyida qoldirilgan qonli izlarni qanday izohlash mumkin? Zalday palamchada qolgan qon izi u yerdan yaralanganlardan birortasining sudrab o'tilganligidan dalolat berardi. Tergovchilardan biri qurbon qotildan qochib ketmoqchi bo'lganligini taxmin qildi, lekin Grexem uni darhol rad etdi, chunki jinoyatchining o'zi jasadlarni sudrab yurganiga va keyinchalik o'ldirilgan joyiga yotqizib ketganiga amin edi.

Qotilning Lids xonimga nima qilganligi aniq. Ammo bosh-quluga-chi? Ularning tanasi xonadon bekasinikidek ilma-teshik qilmagan edi. Bolalar boshlariga uzilgan bittagina o'qdan o'ngina o'lim topishgan. Charlz Lids esa ko'p miqdorda qon yo'qotishi natijasida halok bo'lgan. Pichoq qoldirgan izdan tashqari, Charlzning ko'krak qafasida ham nozik jarohat bor edi, lekin uning "Murdani yorib ko'rish operatsiyasi mobaynida paydo bo'lgan", deyishdi. Xo'sh, qotil o'z qurbonlari vafot etgach nima qilgan?

Grexem qo'lidagi jilddan fotosuratlarni, tahlillar va namu-

¹ Nitrat — o'ziga o'zining sifatida hamda dori-darmon va portlovchi moddalar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan kumushli modda.

nalarning natijalarini olib, qon tarqalishi yo'nalishining hisob-kitoblarini topdi. Shundan so'ng yuqori qavatdagi barcha xonalarni aylanib chiqdi, qon dog'lari joylashishini jarohatlar tavsifi bilan taqqosladi. Yotoqxonaning keng ko'lamli chizmasida har bir oyoq izini belgilab qo'ydi va yo'nalishlarni hisoblab, qon tarqalishi yo'nalishini va tezligini aniqladi. Shu yo'l bilan murdalarning turli vaqt oralig'ida egallagan joylarini bilishga umid qildi. Yotoqxona burchagidagi devorda uchta qonli chiziqli bo'lgan. Pastdagi gilamchada ham uchta qonli dog' bor edi. Shuningdek, karavotning Charlz Lids tomonidagi devor qismi ham qonga belangan edi.

Grexemning qo'lidagi chizma betartib yozilgan turli xil raqamlardan iborat jumboqqa o'xshab qoldi. U goh qo'lidagi qog'ozlarga, goh xonaga nazar tashlab, boshi og'rib ketdi. Hammomga kirib bosh og'rig'iga qarshi oxirgi ikkita tabletkasini bir hovuch suv bilan ichib yubordi-da, yuziga sovuq suv sepib, ko'ylagining yengi bilan artdi. Keyin suv to'kilgan polga ko'zi tushib, chiqindi suv quvurlari olib ketilganligini esladi. Singan ko'zgu va barmoq izlarini olish uchun qo'llaniladigan "Ajdarho qoni" nomli kukun izlarini aytmaganda, hammomdagi deyarli hamma narsa joyida edi.

Hammomning saranjom-sarishtaligi uyda oila hanuzgacha yashayotgandek tasavvur uyg'otdi. Sochiq ilgichga Lids xonimning uzun paypoqlari osilgan edi. Grexem ularning poyma-poy qilib bir-biriga ulanganligini sezdi. Bundan ko'rinadiki, ayol yirtilib qolgan uzun paypog'ining butun juftini kesib olib boshqasiga yamagan va pulni tejashga uringan. Lids xonimning tejamkorligidan Grexemning yuragi siqildi. Molli ham xuddi shunday qilardi. Grexem ikkinchi qavat derazasidan ayvon tomi-ga chiqdi va oyoqlari ustiga o'tirib, yoqimsiz qon hididan xalos bo'lish uchun chuqur nafas oldi.

Atlantaning chiroqlari tungi osmonni arang yoritir, yulduzlar deyarli ko'rinmasdi. Ayni damda ummon bo'yiga ajoyib tun cho'kkan bo'lsa kerak. Hozir u qadrdon uyining oldida Molli va Uilli bilan birga o'tirib, yulduz uchishini kuzatib, osuda tun tinchini buzayotgan tovushlarni tinglab o'tirgan bo'lardi. Meteoritlarning¹ yozgi yomg'iri ayni avjiga chiqqan palla bo'lganligi uchun Uilli tunlari mijja qoqmay chiqardi. Grexem yelkalarini qisib, chuqur nafas oldi. Hozir Molli haqida o'ylashning mavridi emas, uni ishdan chalg'itib qo'yishi mumkin. U ham ba'zan muayyan vaziyatga mos keladigan narsa bilan nomuvofiq narsalar orasidagi chegarani ajratolmay qolardi. Grexemning fikrlar oqimiga bexosdan tushib ketgan izquvar uning boshida suzib yurgan gumburlashlar, umuman yo'q narsalar haqidagi chegarasiz fikrlaridan hayratda qolishi aniq. Grexem o'zi eshitgan va ko'rgan hamma narsani g'oyibona tarzda o'tmish xotiralari bilan birlashtiradi. Oddiy odam uchun bunday tasvirlarni xotirasida saqlab yurish va kerak payti ishga solish juda qiyin. Grexem tasavvurlarining qayerga olib borishini oldindan bilmasa-da, fikrlari oqimini to'xtatishdan ojiz edi. U o'zining fikrlash tarzini noodatiy, lekin ancha foydali bug'u shoxidan yasalgan stulga taqqoslab, grotesk deb atar edi. Biroq hali ham o'zini o'zgartira olmagan edi.

Grexem xonalardagi chiroqlarni o'chirib qo'ydi va oshxona orqali uydan chiqib ketdi. U qo'ldagi chirog'ini ayvonning eng chekkasiga qaratib, velosiped va qo'lda to'qilgan it yotog'ining to'shamasini topib oldi. Hovlida itning uyчасi, zina ustida itning oqvat tovog'i bor edi. Qiziq ...Tungi hujum Lidslar uchun umuman kutilmaganda sodir bo'lgan.

¹ **Meteorit** --- Quyosh sistemasining sayyoralararo fazodan Yer yuziga tushadigan qattiq jismlari. Quyosh atrofida orbita bo'ylab aylanayotgan son-sanoqsiz qattiq jismlardan ayimlarining orbitasi o'zgarishi natijasida Yer bilan to'qnashadi.

Grexem qo'ldirog'ini iyagi bilan ko'kragiga bosib, Krouford uchun: *"Jek, o'shanda it qayerda edi?"* — deya eslatma yozib qo'ydi va mashinada mehmonxonaga qaytib keldi. Ertalabki to'rt yarimda yo'llarda transport harakati uncha ko'p bo'lmasa-da, u mashinasini juda ehtiyotkorlik bilan haydadi. Bosh og'rig'i umuman qolmagan edi, shu sababli oldidan biror dorixona chiqib qolishiga umid qilib, atrofga nazar tashlab ketdi. Va nihoyat, Pichtri yo'lida bitta dorixona uchradi. Yorug' dorixona izquvarning charchagan ko'zlarini qamashtirib yubordi. Dori sotuvchisining eskirgan, kir ko'ylagi Grexemni g'azablantirdi va bir quti bufferin¹ berishni so'radi. U hamma narsaga beparvo yosh dori sotuvchilarni juda yomon ko'rardi. Dorixonani shunday tartibsiz holga keltirib qo'ygan bo'lishsa, uylari qanday ekan bularning?

— Yana nima kerak? Aytavering, — dori sotuvchisi barmoqlarini kassa tugmachalarini bosishga shaylab, unga savol nazari bilan qaradi.

Atlantadagi Federal qidiruv byurosi xodimlari unga yangi qurilgan "Pichtri" markazi yaqinida bunyod etilgan g'alati mehmonxonadan joy topib berishgandi. Shaffof shishali liftlar, aftidan, uning, rostdan ham, shaharda ekanligini eslatib turadigandek edi.

Grexem ikkita odam bilan liftga chiqib o'z qavatiga ko'tarila boshladi. Ularning ko'ylagi yoqalarida "Salom!" (Hi!) degan yozuv tushirilgan nishonlar bor edi. Ikkalasi ham tutqichlarga suyanib, yuqoriga o'rlagan shisha qafasdan turib qabulxonaga ko'z tashlab qo'yishdi.

— Ana, stolning orqasida turgani Uilma. Iya, anavilar ham

¹ **Bufferin** — revmatizm, yuqumli-allergik miokardit, isitma, nevrologiya, mialgiya, bosh og'rig'i, tromboz, emboliya, miokard infarkti kabi kasalliklarning oldini olishda yoki davolashda qo'llaniladigan dori.

shu yerda ekan-ku, — dedi novcharoq bittasi.

— Bir qo'lga tushiramiz bularni hali, — javob qaytardi ikkinchisi.

Ularning gaplaridan oshkora shahvat maqsadi yangrardi.

— Ayollarga oyoq nega kerakligini bilasanmi?

— Yo'q. Xo'sh, nima uchun kerak ekan?

— Shilliqqurtga o'xshab iz qoldirmasliklari uchun.

Lift eshiklari ochildi.

— Shu qavat biznikimidi? — so'radi uzun bo'yli odam va o'ziga o'zi javob berdi: — Ha, bizniki ekan.

— Ko'r ko'rni yetaklayotgandek bo'ldi-ku, — deya kuldi ikkinchisi.

Girexem xonasiga kira solib jildni karavot yonidagi stolga qo'ydi, lekin uni tortmasida — ko'zdan nariroqqa olib qo'yishga qaror qildi. Bugunga yetadi: murdalarning suratlariga qaray-verib, charchab ketdi. Molliga qo'ng'iroq qilishni istasa ham, hali ertaligi sabab shoshilmadi.

Atlanta politsiya departamentidagi¹ yig'ilish ertalabki sak-kizga rejalashtirilgan edi. Uill u yerda maqtanib ayta oladigan auzirli narsa topmaganidan xo'rsinib uxlashga urindi. Uning miyasi qarama-qarshi, ba'zan bir-birini istisno qiladigan xulosalar omboriga o'xshardi. Karaxtlikni yengish uchun tokchadan shakanni olib, unga viski² quydi va bir nafasda ichib yubordi-da, yana yotdi. Zulmat uni ezardi, yana o'rnidan turdi, borib vanna-xonadagi chiroqni yoqdi va u yerda uxlashdan oldin sochlarini mayin tarayotgan Mollini tasavvur qildi.

Hech qachon ovoz chiqarib o'qimagan bo'lsa-da, qulog'i

¹ *Departament* (fransuzcha: *departement* — boshqarma, idora) — ba'zi mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, mahkama, idora va vazirliklar yoki ular tarkibidagi bo'linmalarining nomi.

² *Viski* (inglizcha: *whisky* — obi hayot) — o'tkir alkogolli ichimlik (hajmga ko'ra spirt tarkibi 40-50%). Asosan Angliya va AQShda tarqalgan.

ostida murdalarni yorib ko'rish amaliyoti bayonotidagi satrlar yangray boshladi: "Ichaklar to'lib turibdi... O'ng sonning pastki qismida pardoz talkining¹ izlari bor... Ko'z olmasi shisha parchasidan shikastlangan..." Grexem o'zini to'liqlar shovullashini tinglab, qumli sohilda bemaqsad aylanayotgandek tasavvur qilishga urindi, Uilli bilan birgalikda yasayotgan suv soati dizayni haqida o'yladi, shivirlab "Viski daryosi" ("Whiskey River") va Molli bastalagan "Qora tog' ragasi"² ("Black Mountain Rag") qo'shiqlarini xirgoyi qildi. Doktor Uotsonning o'sha qo'shiqdagi gitara³ chaladigan qismi zo'r chiqqandi, lekin doim skripka⁴ chalinadigan joyida adashib ketardi. Molli unga yog'och ship-paklar kiyib tushiladigan kulgili qishloq raqsini o'rgata boshlagandi...

Nihoyat, Uill uxlab qoldi, biroq oradan bir soat o'tmasdan qattiq terga botib uyg'onib ketdi. Yonida hamma yog'i qonga bulg'angan, ko'zlari shisha bilan kesilgan Lids xonim yotar edi. Uill boshini o'girib unga qarashga botina olmadi. Miyasi xu'di yong'indan ogohlantirayotgan signalizatsiya⁵ qurilmasidek tinmay jiringlayotgan edi. U qo'lini oldinga cho'zib quruq choy-shabni ushladi va ancha yengil tortdi. Ammo yuragi hali ham vahima bilan urib turardi. O'rnidan turib, quruq futbolkasini⁶ kiy-

¹ **Talk** — texnika va tibbiyotda ishlatiladigan oq yoki ko'kish rangli mineral.

² **Raga, rag** (*sanskritcha*; rang, istak) — Hindiston va Pokiston xalqlarining mumtoz musiqa janri.

³ **Gitara** (*ispancha*; guitarra — chertma musiqa asbobi) — olti yoki yetti torli, chertib chalinadigan musiqa asbobi.

⁴ **Skripka** (*ruscha*; «g'ijir-g'ijir, g'arch-g'urch») — kamoncha bilan chalinadigan, to'rt torli musiqa asbobi.

⁵ **Signal** (*nemischa*; Signal < *lotincha*; signum — belgi) — 1) biror ma'lumot, buyruq, xabar va shu kabilarni yaqin yoki uzoq masofaga yetkazish, kishilarni o'ziga qaratish, ogohlantirish, tartibga chaqirish uchun qo'llanadigan shartli belgi, ishora, tovush; 2) biron hodisaning oldini oluvchi, u haqda ogohlantiruvchi, ta'kidlovchi xabar yoki belgi, ishora. **Signalizatsiya** (*fransuzcha*; signalisation — belgilarni masofaga uzatish) — signallar sistemasi va signal beruvchi asboblardan qurilmalar majmuidir.

⁶ **Futbolka** — yengil kalta trikotajdan tikilgan sport ko'ylagi.

di va jiqqa suv bo'lib ketganini tog'oraga tashladi-da, karavotning narigi tomoniga o'tishga jur'at etmay boyagi joyiga quruq sochiq to'shadi. Qo'lida bir stakan viski bilan sochiq ustida yotib, tong otishini orziqib kutdi.

Dahshatli xayollarini quvish uchun Uill qotillik tafsilotlaridan boshqa narsalarni o'ylashga harakat qilib chiqdi, o'zi bufferin sotib olgan dorixonani esladi. Bu butun kun davomidagi jinoyatchilikka aloqasi bo'lmagan yagona voqea edi. Bolaligidagi eski dorixonalar yodiga tushdi. Grexem doim u yerga kirishga tortinardi, chunki tokchalardagi homiladorlikka qarshi vositalarga qarashni o'ziga ep ko'rmasdi. Bugun tabletka sotib olgan dorixonada esa ular xuddi ko'rgazmadagi eksponatlar¹ singari kassa² orqasidagi shisha tokchada yaltiroq qutichalarda ko'z-ko'z etib qo'yilgandi. Hozirgi zamonaviy farmatsevtik muassasalarni eskisi bilan taqqoslab bo'lmasa ham Grexem yoshligidagi dorixonalarni afzal ko'rgan bo'lardi. U qirq yoshga kirgan va o'tmish yukini allaqachon his qila boshlagan, o'tmish voqealari bo'ronli ob-havoda og'ir langar singari unga tushov bo'lib kelayotgan edi. Uning esiga shu tobda Smut tushdi.

Uill hali ancha yosh paytida sodaning³ jinnisi bo'lgan Smut mahalliy dorixona egasining qo'lida boshqaruvchi bo'lib ishlar-dir. O'shanda Grexem hali boshlang'ich maktabda o'qirdi. Smut uchi joyida ham bo'kib ichar, quyoshli kunlarda deraza pardasini tushurishni unutishi oqibatida shokoladlar erib yotardi. Bir kuni Smut qahva idishini o'chirishni esidan chiqarib qo'ygan va dori-

¹ **Eksponat** (*lotincha*: *exponatus* — ko'rgazmaga, tomosha uchun qo'yilgan) — muzey va ko'rgazmalarda namoyish qilinadigan, ekspozitsiyaga qo'yilgan narsa.

² **Kassa** (*lotincha*: *cassa* < *lotincha*: *capsa* — biror narsa saqlanadigan idish; quti) — 1) muassasa, korxonalarning pul qabul qilish, pul berish, chipta sotish va shu kabilar bilan shug'ullanuvchi bo'lini; 2) qabul qilib olingan summa (cheklar) ko'rsatilgan talonlar bo'lab chiqariladigan (aks ettiriladigan) qurilma, apparat va shu qurilma joylashgan xona.

³ **Qonda** — paxta spirtli ichimlikning bir turi.

xonani o't olib ketgandi. U bolalarga qarzga muzqaymoq ham sotardi. Uning eng yirik qilmishlaridan biri do'kon egasi yo'qligida uning ruxsatisiz tovar yetkazib beruvchiga ellikta qo'g'irchoqqa buyurtma berganligi edi. Ta'tildan qaytib kelgan do'kon xo'jayini Smutni bir hafta ichida ishdan bo'shatib yubordi, shundan so'ng dorixonada qo'g'irchoq savdosi avj olib ketdi. Vitrina-ga yarim doira shaklida joylashtirilgan ellikta qo'g'irchoq hammaning e'tiborini tortar edi. Grexem ko'zlari dumaloq va ko'm-ko'k qo'g'irchoqlarni ko'rish uchun atayin do'konga bo-rib, deraza oldida mixlanib turardi. U bular shunchaki oddiy qo'-g'irchoqlar ekanligini bilib tursa ham, ularga tikilaverardi. Dera-zaning bir burchagidagi yelim qo'g'irchoqlar to'plami juda g'ayrioddiy manzara hosil qilgan edi.

Grexem biroz tinchlana boshladi, stakanni ko'tarib, yana bir qultum ichayotganda birdan tiqilib qolib, viskisini ko'kragiga to'kib yubordi-da, shoshilib karavoti yonidagi tortmaga qo'lini uzatdi va hujjatlar solingan jildni olib, ichidan uchta bolaning laboratoriya tekshiruvlari tahlili, qon izlari belgilab qo'yilgan yotoqxonaning chizmasini karavotiga yoyib tashladi.

Shunday qilib, devorning uchta joyida qonli nuqta bor, ular-ning ostidagi gilamchada ham qon izlari bor. Endi bolalarni bo'y-lari bo'yicha saflaymiz. Uka, singil va aka ... Hammasi bir-biriga mos kelyapti. Demak, ular devorga bir qator qilib qo'yilgan, yuzlari esa xuddi tomoshabinlardek, to'g'rirog'i, o'lik tomosha-binlardek ota-onalarining karavotiga qaratilgan. Qotil janob Lidsning o'lik tanasini o'tirgan holatida karavot boshiga arqon bilan bog'lab qo'ygan. Karavot tepasidagi devorning bir qismida shu sababli qon izlari qolgan. Ammo o'lik tomoshabinlar qanday tomoshani ko'rishlari kerak bo'lgan? Axir, ular o'lgan edi-ku. Yo'q, bolalarning ko'zlari ochiq bo'lgan va qotilning Lids xo-nimga nima qilganligini ko'rib turishgan. Janob Lids esa kara-

votga bog‘lab tashlangan. Tomoshabinlar... Telba jallod ularning yuzlarini yaxshi ko‘rib turishi kerak edi. U sham ham yoqqanmikin? Agar shunday bo‘lsa, bolalarning yuzlaridagi ifodani jonliroq yoritgan bo‘lardi. Lekin, politsiya hech qanday sham yoki mum izlarini topmagandi. Grexem jinoyatchiga olib boruvchi qandaydir yo‘l topganligini his qildi, lekin jumboq hali yechilmagan edi. U xayolga berilib choyshabning bir burchagini chaynadi.

Nega jasadlarni ilgari o‘ldirgan joylariga qaytarib olib kelding? Nega ularni shu yerda qoldirmading? Sen men bilmasligim kerak bo‘lgan nimanidir yashiryapsan. O‘zing uyaladigan narsani bekityapsan. Ularning ko‘zlarini ochib chiqdingmi? Lids xonim chi-royli edi, shunaqami? Erini bo‘g‘izlaganingdan keyin u buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib qo‘yishi uchun chiroqni yoqqanmiding? Uning badaniga qo‘lqoping bilan tegmagansan. Nega?

Tekshiruvlar natijasida ayolning o‘ng to‘pig‘ida talk pudrasining izlari aniqlangan edi. Lekin Lidslarning hammomida talk kukuni topilmagandi. Unga boshqa bir begona ovoz ikki faktni bir-biriga bog‘lab gapirganday tuyuldi:

Qo‘lqoplaringni yechgansan, to‘g‘rimi, ablax? Ayolning tanasiga tegish uchun rezina qo‘lqoplaringni yechayotganingda talk to‘kilgan. Badaniga qo‘l teggizib, keyin yana qo‘lqoplaringni kiyib, harmoq izlaringni artgansan. Ammo qo‘lqoplaringni yechganingda, bolalarning KO‘ZLARI OCHIQMIDI?

Jek Krouford qo‘ng‘iroqqa beshinchi urinishda arang javob berdi, lekin tungi qo‘ng‘iroqdan sira ajablanmadi, chunki bu burchni marta emas edi.

Jek, bu men, Uiliman.

Eshityapman, Uill. Gapiraver.

— Menga ayt-chi, Prays hali ham “Egasi aniqlanmagan barmoq izlari” bo‘limida ishlayaptimi?

— Ha, u boshi bilan ishga sho‘ng‘igan, hozir barmoq izlarini aniqlash tizimi ustida ishlayapti, shekilli.

— U Atlantaga kelmasa bo‘lmaydi.

— Nima uchun, axir? O‘zing munosib mutaxassis borligini aytuvding-ku.

— Ha, lekin u Praysdek emas-da.

— Nimaga kerak o‘zi u? Biror narsani tekshirib berishi zarur bo‘lyaptimi?

— Lids xonimning qo‘llari va oyoqlaridagi tirmoqlarni. Ularga lak surilgan, yuzasi silliq. Yana hamma jasadlarning ko‘z qorachiqclarini ham tekshirish zarur. Menimcha, qotil qo‘lqoplarini yechgan.

— Ey Xudoyim! Unday bo‘lsa Prays shoshilmasa bo‘lmaydi. Axir, bugun tushda dafn marosimi o‘tkaziladi-ku!

UCHINCHI BOB

— Menimcha, qotilni ayolga qo‘l teggizishga nimadir majbur qilgan, — dedi Grexem eshikdan kirishi bilan.

Krouford Atlanta politsiya bo‘limida o‘rnatilgan avtomatdan bir stakan “Pepsi” olib unga uzatdi. Soat bu paytda o‘nta kam sakkizni ko‘rsatardi.

— Albatta, u ayolni sudrab yurgan, — javob berdi Krouford. — Bilagi va tizzasida ko‘kargan joylar bor edi. Ammo u rezina qo‘lqop bilan harakat qilgan. Mayli, tashvishlanma, qariya Prays bugun yo‘lga chiqqan. To‘ppa-to‘g‘ri dafn marosimi o‘tkaziladigan byuroga boradi. Jasadlar o‘likxonadan kecha keltirilgan bo‘lsa ham byuro hanuzgacha biror ish qilgani yo‘q.

Uill, horg'in ko'rinasan, kechasi uxlamadingmi?

— Ko'pi bilan bir soatgina uxladim, shekilli. Qotilning qo'lqopni yechib ayolning tanasiga tegishiga nima majbur qilgan bo'lishi mumkin?

— Taxmining to'g'riligiga ishongim kelyapti, lekin laboratoriyadagilar uning qo'lqopni umuman yechmaganligini tasdiqlashdi. Shisha siniqlarida ham qo'lqop izlari aniqlangan, aniqrog'i, oyna sinig'ining orqasidan ayolning jinsiy a'zosida qolgan iz bilan bir xil bosh va ko'rsatkich barmoq izlari topilgan. Og'zidan va ko'z soqqasidan topilgan shisha siniqlari qonga botgan. U qo'lqoplarini umuman yechmagan.

— Lids xonim chiroyli ayol bo'lgan, oilaviy fotosuratlarini ko'rgandirsan? Men ham qulay fursatdan foydalanib qolgan bo'lardim, Jek.

— Qulay fursat?! Qo'ysang-chi! — ovozida nafrat aks etgan Krouford birdan cho'ntaklarini ag'darib tanga izlashga tushib ketdi.

— Ha, qulay fursat, chunki ular yolg'iz qolishgan, bu vaqtgacha qolganlarning hammasi o'lib bo'lgan. Qotil o'z ta'biga qarab murdalarning ko'zlarini yumishi ham, ochishi ham mumkin edi.

— Ha, tushunarli. Ayolning tanasi sinchkovlik bilan tekshirilgan, barmoq izlari umuman yo'q. Bo'ynida ko'kargan joyi mavjud, lekin unda ham jinoyatchining qo'lida qo'lqop bo'lgan.

— Tirnoqlar yuzasining tekshirilganligi to'g'risida hisobotda biron bir so'z yo'q.

— Menimcha, tirnoqlari qonga botgan bo'lgan, ammo u qotilni tirnamagan, aksincha o'zining kaftlarini yara qilgan.

— Oyoqlari chiroyli ekan, — ming'irladi Grexem.

— Hmm. Tezroq yuqoriga chiqaylik, armiyamiz ham jangga shay bo'lib turgandir.

Qo'lida ikkita og'ir chemodan, g'ilofga solingan kamera va kengayadigan shtativni¹ ko'tarib olgan Jimmi Prays Atlantadagi dafn marosimlari byurosi ostonasidan o'tib ichkariga kirdi. Keksa Praysning aeroportdan bu yoqqacha bo'lgan uzoq sayohat va ertalabki g'ala-g'ovurlar sababli avzoyi buzuq edi. Sochlarini zamonaviy qilib turmaklab olgan bir yigit ikkilanmasdan mehmonni bezatilgan, och olovrangga bo'yalgan xonaga kuzatib qo'ydi. Yozuv stolida "Ibodat qilayotgan qo'llar" degan haykalchadan boshqa hech vaqo yo'q edi. Prays haykalchani tirmoqlarini tekshirayotganida kutish xonasiga dafn marosimlari byurosining egasi janob Lombard kirib keldi. U Praysning hujjatlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqdi.

— Yaqinda Atlantadagi filialingizmi yoki agentligingizmi, ishqilib, o'shalar qo'ng'iroq qilishgan edi, lekin shunday bo'lsa ham ba'zi ehtiyot choralari ko'rishim kerak. O'tgan kecha "Ichkaridagi g'iybatlar" ("National Tattler") gazetasi uchun material yig'ishni niyat qilgan bittasi kelib suratga tushirmoqchi bo'ldi, uni quvib chiqara olmagach, politsiya chaqirishga majbur bo'ldik. Bizni to'g'ri tushunasiz deb o'ylayman, janob Prays. Jasadlar bizga tungi soat birlarda yetkazildi, dafn marosimi bugun soat beshda o'tkaziladi. Shu bois tezroq ishingizni bitir-sangiz, yaxshi bo'lardi.

— Xo'p, sizga ortiqcha muammo tug'dirmaslikka harakat qilaman. Menga bitta aqlli-roq yordamchi kerak. Ayting-chi, janob Lombard, jasadlarga qo'l teggizingizmi?

— Yo'q.

¹ **Shtativ** (nemischa: Stativ < lotincha: stativus — tik turuvchi) — 1) turli asbob, kimyoviy idish va shu kabilarni muayyan vaziyatda tutib turadigan moslama; 2) foto va kinoapparatlar yoki astronomik, geodezik asboblarni o'rnatiladigan yig'ma asbob, uchyoq.

— Unda kim tegganligini yaqin orada bilib olamiz. Xodimlaringizning barmoq izlarini olishim kerak.

* * *

Lidslar ishi bo'yicha ertalabki politsiya brifingida¹ butun e'tibor tishlar mavzusiga qaratildi. Atlanta politsiyasi boshlig'i yengini shimarib olgan baqaloq Springfield (laqabi "Qariya") doktor Dominik Prinsi bilan eshigi oldida turgan xonaga yigirma uch nafar detektiv birin-ketin kirib joylashishdi. Springfield yig'ilganlarga yuzlandi:

— Juda yaxshi, yigitlar. Kelganligingiz uchun bir tabassum qilaylik-a. Qani, hammangiz Doktor Prinsiga tishlaringizni ko'ratinglar-chi. Bu hammaga tegishli! Hoy, Sparks, og'zingga to'qon solib olganmisan? Barakalla!

Xonadagi e'lonlar taxtasiga osilgan yuqori va pastki jag'tasvirlangan katta plakat barchaning e'tiborini tortdi. Grexemann ko'z oldiga ko'zlari o'yib olingan, tishlari bo'yalgan odam boshi shaklidagi qovoq keldi. U Krouford bilan orqaroqdan joy oldi, mahalliy detektivlar o'zlarining doimiy partalariga o'tirishdi. Ulardan sal nariroqda Atlanta jamoat xavfsizligi boshlig'i Gilbert Lyuis va uning matbuot kotibi o'tirdi. Bir soatdan keyin Lyuis matbuot anjumani o'tkazishi kerak edi. Detektivlar rahbari Springfield gap boshladi:

Demak, bundan buyon bekor yurishni yig'ishtiramiz. Ertalab bayonotlarni o'qib chiqqaningizda, hech nimaga erishmaganimizni o'zingiz ko'rardingiz. Men oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydim: jinoyat sodir etilgan joy atrofidagi to'rtta uy ham qamrab olinib, ularda istiqomat qiluvchilar o'rtasida so'rov-

¹**Brifing tushunchasi:** briefing — yo'l-yo'riq < brief — qisqa; qisqacha xulosa) — rasmiy mas'ulning umumiy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtai nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.

nomalar o'tkazish davom ettiriladi. "Risk & Insurance"¹ kompaniyasidan ikkita xodim keldi, ular bilan birgalikda Birmingem va Atlantaga sotilgan aviachiptalar va shu ikki shaharda ijaraga berilgan mashinalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirib chiqish kerak. Bugun barcha aeroportlar va mehmonxonalar qaytadan tekshiruvdan o'tkaziladi. Yana bir bor tekshirib chiqamiz, tushunarlimi? Mehmonxonadagi hamma xizmatchilar, qabulxonadagilar, ayniqsa, ofitsiantlar yaxshilab so'roq qilinsin. U biron joyda iz qoldirgan bo'lishi mumkin-ku. Agar mehmonxonadagi qotil yashagan xonani topishga muvaffaq bo'lsangiz, ayni damda o'sha yerda turgan odamni boshqa xonaga chiqarib yuborib, xonani ipidan ignasigacha tekshiring, so'ng kirxonadagilar bilan bog'laning. Hozir sizlarga doktor Prinsi qiziq bir narsani ko'rsatadi. Marhamat, doktor.

Qo'lida yasama jag' ushlagan Fulton okrugining² bosh tibbiyot eksperti boyagi jag'lar chizmasining oldiga keldi.

— Janoblar, jinoyatchining tishlari xuddi shunday ko'rinishga ega. Buni Vashingtondagi Smitson instituti olimlari Lids xonimning tanasida va muzlatkichdagi pishloqda qolgan tish izlari asosida yasab berishdi. Ko'rib turganingizdek, u old va yon tishlaridan foydalangan, — Prinsi plakatni va gipsdagi orqa tishlarini ko'rsatdi.

— Tishlar joylashuvi notekis, ba'zilar oldinga chiqib turibdi. Bitta tishning qirrasi yeyilib ketgan, boshqa bittasi esa kavak bo'lib qolgan. Old tishlardagi bunday nuqsonlar ko'pincha ipni tishlab uzadigan professional tikuvchilarda uchraydi.

Davradan kimdir: "Egritish qonxo'r", — deb ming'irlab qo'ydi.

— Dok, pishloqni tishlagan odam o'sha qotil ekanligiga

¹ "Risk & Insurance" - "Tavakkal va sug'urta" kompaniyasi.

² Okrug — Iba'zi davlatlarda ma'muriy-hududiy birlik.

aminmisiz? — soʻradi birinchi qatorda oʻtirgan novcha izquvar. Princi oʻziga “Dok” deb murojaat qilinganligidan nafratlandi, lekin jahlini ichiga yutdi:

— Ayol tanasidagi jarohatlar va pishloq boʻlagidagi soʻlak tahlili har ikkalasi bir xil qon guruhiga mansub odam tomonidan tishlanganligini isbotladi. Qurbonlarning tishi va qon guruhlari esa mos kelmadi.

— Juda zoʻr, doktor, — uni maqtadi Springfild. — Endi rasmlarni tarqatamiz, yigitlar yaqindan koʻrishsin.

Matbuot boʻlimi xodimi Simpkins ham gapga qoʻshildi:

— Balki, gazetalarga ham maʼlumot berishimiz kerakdir? “Shunga oʻxshash tishli insonni koʻrganmisiz?” — deb aholidan yordam soʻrardik.

— Men qarshi emasman, — dedi Springfild. Lyuis ham maʼqullab bosh irgʻadi.

Ammo Simpkins hali gapini tugatmagan edi:

— U holda, doktor Princi, matbuotda: “Nega tish haqidagi ushbu koʻrsatma oradan toʻrt kun oʻtgach eʼlon qilinmoada?” — degan savol tugʻilishi muqarrar. Buning uchun, haqiqatan ham, Vashingtonga borish kerakmidi?

Maxsus agent Krouford ruchkasining tugmachasini oʻynab oʻtirardi. Doktorning yuzi qizardib ketdi, lekin yana oʻsha sokin ohangda javob berdi:

Jabrlanuvchining tanasida qolgan tish izlari, u sudrab ketilayotganida biroz shikastlangan. Janob Simpsonmidingiz?

Simpkins.

Ha-ya, janob Simpkins. Shuning uchun ham faqat oʻsha izlarga asoslanib, mukammal gips olish mumkin emas edi. Bir parcha pishloq biz uchun hal qiluvchi dalil boʻldi. Pishloq qattiq boʻlsa ham, unda qolgan izlardan nusxa olishda baʼzi qiyinchiliklar mavjud. Tarkibidagi namlik quyma ichiga kirmasligi

uchun yog'li qorishma bilan qoplash kerak. Smitson instituti Federal qidiruv byurosi laboratoriyalari uchun shunga o'xshash modellarni ishlab chiqarishda katta tajriba to'plagan. Ularda bunday model asosida yuzning asosiy o'lchovlarini hisoblashga imkon beradigan uskunalar mavjud. Shuningdek, ularda yo'q sud-tibbiyot stomatologi ishlaydi. Yana savollar bormi?

— "Tergovning kechikishiga bizning mahalliy politsiyamizning sust harakati emas, balki Federal qidiruv byurosi tadqiqot markazi faoliyatidagi kamchiliklar sabab bo'ldi", — deyish adolatdan bo'ladimi shunda?

— Janob Simpkins, muzlatkichdagi pishloq bo'lagini bundan ikki kun oldin, ya'ni sizning odamlaringiz jinoyat sodir bo'lgan joyni o'rganib ketgach, Federal qidiruv byurosining maxsus agenti Krouford topgan. Mening iltimosimga binoan uni laboratoriyada tekshirish uchun shoshilinch buyruq bergan ham Krouford edi. Chuqur mamnuniyat bilan sizni ishontirib aytamanki, la'nati pishloqni sizning qo'l ostingizdagi mahalliy detektivlardan bittasi yeb ketmagan.

Ovozi xonani gumburlatib yuboradigan Lyuis bahslashayotgan tomonlarni yarashtirishga urindi:

— Hech kim sizning fikringizdan shubhalanmayapti, doktor Prinsi.

— Simpkins, Federal qidiruv byurosi bilan ahmoqona musobaqa o'tkazishga mutlaqo hojat yo'q! Ish bilan shug'ullanaylik.

— Barchamiz bitta ish ustida ishlayapmiz. Xo'sh. Jek, nimadir qo'shimcha qilmoqchimisiz? — dedi Springfield.

Krouford o'rnidan turdi. Unga boqqan yuzlarning aksariyatida do'stonalik ruhi aks etmayotgan edi. Demak, nimadir qilmasa, bo'lmaydi.

— Men shunchaki vaziyatni yumshatmoqchiman, ser. Yil-

lar davomida biz katta va kichik musobaqalarda qatnashishga odatlanib qolganmiz va Federal qidiruv byurosi ham, politsiya ham bir-biridan ustun turish imkoniyatini hech qachon qoʻldan boy bermagan. Biz bunga shunchalik koʻp kuch sarfladikki, ishimizda boʻshliq paydo boʻldi, jinoyatchilar jazodan qutulib qolishdi. Ammo hozirda Federal qidiruv byurosi har qanday raqobatdan yiroq marrani egallamoqda. Aybdorni men topamanmi yoki mana bu yerda oʻtirgan maxsus agent Grexem topadimi bu mutlaqo ahamiyatsiz. Qotilni axlat tashuvchi mashina bosib ketsa, men uchun ham, sizlar uchun ham juda yaxshi boʻlgan boʻlardi, chunki mamlakat bir jinoyatchidan xalos boʻladi. fikringa qoʻshilasiz degan umiddaman.

Krouford oʻtirganlarning yuz ifodasini tahlil qildi. Begonalik kayfiyati yoʻqolganiga ishongisi keldi. Sukut saqlamay, biror unma desalar boʻlmasmikan? Unga Lyuis murojaat qildi:

- Tergovchi Grexem shu kabi holatlar boʻyicha tajribaga ega mi?

Ha, ser.

Ehtimol, janob Grexem ham nimadir qoʻshishni yoki oʻz fikrlarini bildirishni istar?

Krouford Grexemga savol nazari bilan qaradi.

Iltimos, oldinga chiqing, — soʻradi Springfild.

Grexem Springfild bilan oldindan gaplashib olmaganidan albaslandi. Uning hammaning oldida gapirishga zarracha xohishi yoʻq. Lekin boshqa nima ham qila olardi? Oftobda obdan qoraygan, yamg'in odamga qarab turib uning, haqiqatan ham, Federal qidiruv byurosi tergovchisi ekanligiga ishonish qiyin edi. Springfild Grexemni sudga kelish uchun kostyum kiyishga majbur boʻlgan boʻyoqchiga oʻxshatdi. Ajablangan detektivlar oʻrinbandan bir qoʻzgʻalib qoʻyishdi.

Grexem Atlanta politsiyasiga yuzlandi. Uning qoraygan yu-

zida alohida ajralib turgan ko'm-ko'k ko'zlaridagi sovuq qarash hammaning diqqatini tortdi:

— Vaqtingizni ko'p olmayman. Qotilning ruhiy kasal sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tganligi yoki jinsiy zo'ravonliklar qilganligi hozircha mavhum. Ehtimol, u haqida hech qanday ma'lumot topa olmasmiz. Biror bir ma'lumot topilgan taqdirda ham u jinsiy zo'ravonlik kabi mayda jinoyatlar bilan bog'liq bo'lib chiqishi ehtimoli yuqori. Uning ismi juda jiddiy mohiyatga ega tishlash holatlari haqidagi xabarlarda uchrashi ehtimoli ham mavjud. Masalan, mast holda mushtlashuvlar yoki bolalarga nisbatan zo'ravonlik. Bu yerda tez yordam xodimlari, travmatologiya¹ markazlari yoki bolalarni himoya qilish xizmatlarining ko'rsatmalari foydali bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlashni istardimki, tishlash holatlari bilan bog'liq har qanday ma'lumot ushbu ishda kim ishtirok etganidan va qanday sharoitda bo'lishidan qat'i nazar, ehtiyotkorlik bilan tekshirilishi kerak. Men aytmogchi bo'lgan narsa — shu.

Birinchi qatorda turgan uzun bo'yli militsioner qo'lini ko'tardi va:

— Ammo u barcha holatlarda faqat ayollarni tishlagan, to'g'rimi? — deya so'radi.

— Bilishimcha shunday. Lids xonimning tanasida oltita va Jakobi xonimning tanasida sakkizta tishlash izlari bor. Bu shunga o'xshash holatlarda uchraydigan tishlashlarning o'rtacha sonidan sezilarli darajada ko'p.

— Aynan nimaning o'rtacha soni?

— Jinsiy zo'ravonlik jinoyatlaridagi tishlashning o'rtacha soni uchtdan oshmaydi. Demak, qotil ularni tishlashdan zavq

¹ **Travmatologiya** (yunoncha: trauma, traumatos — shikast, lat + logos — fan, ta'limot) — tibbiyotning travmatlarni o'rganish, ularni davolash hamda oldini olish bilan shug'ullanadigan sohasi.

oladi.

— Ya'ni ayollarni.

— Jinsiy zo'ravonlik jinoyatlari paytidagi tishlashda odatda jarohat markazida so'rishdan keyingi ko'karishlar ham mavjud bo'ladi. Doktor Prinsining hisobotida ta'kidlanganidek, bu ayollarda unaqa ko'karishlar umuman yo'q. Buni o'likxonada jaslarni tekshirayotib o'zim ham payqadim. Tanada so'rish natijasida qolgan izlar yo'q. O'ylaymanki, jinoyatchi uchun tishlash, albatta, jinsiy zavq olish bilan bog'liq emas. Aksincha, bu uning hujum va kurash usullarini tavsiflaydi.

— Uncha ishonarli emas, — dedi boyagi politsiyachi.

— Garchi shunday bo'lsa-da, tishlash haqida eslatib o'tilgan har bir xabarni tekshirishni talab qilaman. Gap shundaki, odamlar bunday favqulodda holatlar haqida sukut saqlashga moyil. Hujumga uchragan bolaning ota-onasi uni it tishlaganini aytadi va hatto bunday tajovuzga moyil bo'lgan oiladan kimdir shubha ostiga tushib qolmasligi uchun qoqsholga¹ qarshi emlashadi ham. Shuning uchun shifoxonalardan qoqsholga qarshi emlash statistikasini so'rash mantiqan to'g'ri keladi. Mening gapim tugadi.

Oyoq muskullari bo'shashgan Grexem joyiga borib o'tirdi. Springfild gap boshladi:

— So'rash kerak bo'lsa so'raymiz. Gap bunday. Buyruqlarimni diqqat bilan eshitinglar. O'g'rilikka qarshi kurash bo'limi va navbatchi qismlar Lidslar oilasi yashagan hududga boradi. Itni yaxshilab kuzatasizlar. Hayvonning tavsifi va fotosurati hujjatlarda bor. Itning yoniga notanish odam kelgan-kelmaganligini qo'shnilardan so'rab chiqasiz. Axloq politsiyasi va narkotiklarga qarshi kurash bo'limi vakillari, sizlar voqea joyidagi qulay

¹ **Qoqshol** — o'tkir infeksiyon kasallik. Asab tizimining qoqshol bakteriyalari toksinidan zararlanishi natijasida organizmdagi turli muskul guruhlarining tortishishi bilan kechadi.

kuzatuv nuqtalarini egallab olasiz. Markus va Uitman dafn marosimiga boradi. Fotografimiz qani? Yaxshi. Hammasi joyida. Dafn marosimini ro'yxatdan o'tkazish kitobini ko'rib chiqing. Uni Birmingem ishidagi ro'yxat bilan solishtiring. Qolgan vazifalar qog'ozda yozilgan. Qani olg'a, yigitlar!

— Yana bir hal qilinmagan masala bor, — dedi Lyuis.

O'rnidan turmoqchi bo'lgan politsiya zobitlari yana qaytadan joylariga cho'kishdi.

— Sizning zobitlaringiz qotilga “Tish parisi”¹ laqabini qo'yib olishibdi. Jinoyatchini o'zaro qanday atashingiz men uchun ahamiyatsiz. Albatta, uni qanaqadir shartli nom bilan atash kerak. Ammo jamoat joylarida va aholi orasida jinoyatchini bunday atash nojoiz deb bilaman. Bu bizning obro'yimizga putur yetkazishi mumkin, shu bois rasmiy bayonotlarda va hujjatlarda ushbu nom ishlatilmasin. Ketishlaring mumkin.

* * *

Krouford Grexem bilan birga bo'lim boshlig'ining idorasiga yo'l oldi. Springfild qahva tayyorlayotgan mahal Krouford kommutatorini olib, kelgan xabarlarni tezda daftariga yoza boshladi. Idora egasi Grexemga yuzlandi:

— Kecha siz bilan gaplasha olmadim. O'zingiz ko'rganingizdek, bu yer g'irt jinnixonaning o'zi. Sizning ismingiz Uill, to'g'rimi? Yigitlarim sizga kerak bo'lgan hamma narsani yetkazib berishdimi?

— Ha, hammasi joyida.

— Qo'limizdan hech narsa kelmayotganligini bilaman. Gulzorda qolgan izlar asosida jinoyatchining qadam tashlash xusu-

¹ G'arb madaniyatining afsonaviy obrazlaridan biri bo'lib, yosh bolalar tishi tushgan paytda tishini yostig'i ostiga qo'yishgan va “Tish parisi” kelib tish o'rniga sovg'a berib ketishiga ishonishgan.

siyatlarini o'rganib chiqdik, ammo — poyabzal o'lchami va uning taxminiy bo'yini aytmaganda — pichoqqa ilinadigan hech narsa topolmadik. U chap oyog'ini chuqurroq bosgan, ehtimol, og'ir narsani ko'tarib o'tgan. Bundan bir-ikki yil oldin qadam olishiga qarab, bitta qulfbuzar o'g'rini hibsga olishga muvaffaq bo'lgandik. O'shanda doktor Prinsi unda Parkinson kasalligini¹ aniqlagandi. Bu safar esa negadir omadimiz yurishmayapti.

— Ajoyib jamoangiz bor ekan, — dedi Grexem.

— Ha, shunday. Lekin hozirgi jinoyat ishi bizning odatdagi ishlarimizga umuman o'xshamayapti. Xudoga shukur, bunday voqealar kamdan kam uchraydi. Sizga bitta savol bermoqchiman. Ayting-chi, siz, Jek va Doktor Blum uchalangiz doim birgalikda ishlaysizlarmi yoki faqat hozirgi ish uchun birlashdinglarmi?

— Vaqtinchalik birgamiz.

— Eski do'stlar bilan uchrashish yaxshi-a? Komissar² menga uch yil oldin aynan siz Gannibal Lekterni hibsga olganingizni aytib berdi.

— Biz o'shanda Merilend politsiyasi bilan hamkorlikda ishlagandik. Politsiyachilar qo'lga olgandi uni.

Springfild qattiqqo'l va qo'pol bo'lsa ham, ahmoq emas edi. U Grexemning noqulay ahvolga tushganligini sezdi-da, stoliga egilib bir necha qog'oz oldi.

Siz itga qiziqib qolgan ekansiz. Mana bu yerda it haqidagi barcha ma'lumotlar bor. Kecha Charlz Lidsning akasiga mahalliy veterinar³ shifokor qo'ng'iroq qilib, qotillikdan bir kun

¹ **Parkinson kasalligi** (1755–1824-yillarda yashagan ingliz shifokori va kimyogari Jeyms Parkinson nomidan olingan) — asta-sekinlik bilan rivojlanib boruvchi ruhiy xastalik. Ko'pincha keksa yoshdagi insonlarda yo'liqadi.

² **Komissar** (lotincha: *comissarius* — vakil qilingan; vakolat berilgan) — ayrim xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yoki politsiyachilik vazifalarini bajaruvchi mansabdor shaxs.

³ **Veterinariya** (lotincha: *veterenarius* — hayvonlarni davolovchi) — hayvonlarning kasalliklarini ularning oldini olish usullari hamda ushbu kasalliklarni davolash to'g'risidagi bilimlar. **Veterinar** — veterinariya bo'yicha oliy malakali mutaxassis; mol doktori.

oldin janob Lids va uning to'ng'ich o'g'li itni uning qabuliga olib kelganini aytdi. Shifokor o'sha vaqtda uning oshqozonidagi yarasini tikib qo'ygan ekan. Qizig'i, dastlab yara unga miltiq o'qidan hosil bo'lgandek tuyulgan, ammo oshqozonidan hech qanday o'q chiqmagan. Uning fikriga ko'ra, itni o'tkir narsa bilan urishgan. Qo'shnilaridan Lidslarning iti yoniga kimdir kelgan yoki kelmaganligini so'rab bilib olamiz. Bundan tashqari, bugun shahardagi barcha veterinarlarga qo'ng'iroq qilib, shunday jarohat olgan hayvonlar haqida ma'lumot to'playmiz.

— Itga “Lids” so'zi yozilgan bo'yinbog' taqilganmi?

— Bilishimcha, yo'q.

— Birmingemdagi Jekobilarning iti bo'lganmi?

— Hozir bilib olamiz. Biroz kuting.

Springfild telefon go'shagini olib raqam terdi. “Leytenant Flatt bilan Birmingem ishi bo'yicha hamkormiz. Salom, Flatt, Jekobilarning iti nima bo'ldi? Ha ... hmm ... shunday deng, bir daqiqqa...” — u qo'li bilaan go'shakni to'sdi va Grexemga yuzlandi:

— It yo'q ekan, lekin hammomdan mushukning axlat qutisi topilgan. Mushukning o'zi esa yo'q. Qo'shnilar ko'z-quloq bo'lib turibdi.

— Birmingemdagilarga uylar ortidagi hovlilarni, ayniqsa, qo'shimcha binolarni yaxshilab tekshirishlarini ayting. Agar mushuk yaralangan bo'lsa, yosh bolalar buni darhol aniqlay olmaydi, uni ko'mib tashlagan bo'lishlari ham mumkin. O'lim yaqinlashayotganini sezgan mushuk yashirinishga intiladi. Itlar esa — nima bo'lmasin — uyga sudralib keladi. Mushukning bo'yinbog'i bormikan?

Shu payt Krouford qo'shimcha qildi:

— Agar ularga metan¹ namunasi kerak bo'lsa, ayting, o'zimizdagi natijani yuboramiz. Ikki marta qilib o'tirishning keragi

¹ **Metan** — uglerod bilan vodorod birikmasidan iborat rangsiz yonuvchi gaz.

yo‘q.

Springfild Birmingemga yangi ma‘lumotlar va savollar bilan murojaat qildi. U go‘shakni qo‘yishi bilan telefon yana jiringladi. Bu safar ular Jek Kroufordni so‘rashdi. “Lombard” dafn marosimlari byurosidan Jimmi Prays u bilan gaplashmoqchi ekan.

— Jek! Bitta yangilik bor! Lidslardan birining tanasidan bosh barmoq va kaftning izlarini topdim.

— Jimmi, hayotimni quvonchga to‘ldirding!

— Lekin bu izlar yaqqol ko‘rinmaydi. Xonamga qaytib, ulardan nimalar chiqishini tekshirib ko‘raman. Ularni to‘ng‘ich o‘g‘ilning chap ko‘zidan topdim. Butun faoliyatim davomida bunday holatga duch kelmagan edim. Oldin o‘q izlari bilan shug‘ullanib buni sezmagani bo‘lsam kerak.

— Sen undan biron bir narsani aniqlay olasanmi ishqilib?

— Hozir biror nima deyish qiyin, Jek. Bu xuddi lotereyadek gap. Lids xonimning chap qo‘lidagi bosh barmog‘ida kaft izini topdim. Taqqoslash uchun yaxshi bo‘ldi. “Lombard” va boshqalar xolis guvoh bo‘lishdi, dalillarni suratga oldim. Bo‘ladimi?

— Xo‘sh, dafn marosimlari byurosining barcha xodimlarini tekshirib chiqdingmi? Ehtimol, bu ulardan birining barmoq izidir?

— “Lombard” va xodimlarning barmoq izlarini olib chiqdim. Hech kim murdaga tegganini tan olmasa ham hammanikini yiq‘dim. Ular hozir qo‘llarini artishmoqda. Jek, mening bu yerda boshqa qiladigan ishim yo‘q, hisobi. Uyga qaytishimga ijozat ber. Laboratoriyamda barmoq izlari ustida o‘zim ishlashni istayman. Atlantaning suvlarida nima borligini bir Xudo biladi, balki, yuqumli kasallik bordir. Bir soat ichida Vashingtonga uchayotgan samolyotga ulguraman va tushgacha xulosani faks¹ orqali

¹ **Telefaks** (inglizcha: telefac < tele., + lotincha: faximile — aynan shunday, o‘xshash bo‘ladi) — 1) bosma axborotlarni uzatishga mo‘ljallangan xalqaro faksimil telefon aloqasi;

senga yetkazaman. Rozimisan?

Krouford javob berishga biroz ikkilanib turdi-da, oxiri rozi boldi:

— Bo‘pti, Jimmi, ishni davom ettiraver. Nusxalarni Birminghamga, Atlanta politsiyasiga va Federal qidiruv byurosiga yuborishni unutma.

— Ha, lekin yana bir ishni hal qilmadik.

Krouford uning iltimosini eshita turib, ensasi qotgan bo‘lsa ham jilmayishga urindi va: “Mayli, do‘stim Jimmi, bugun sen nima desang shu bo‘ladi”, — dedi. Krouford byuroga bayonot berayotgan mahal Grexem derazadan atrofga nazar tashladi.

— Hammasi ajoyib! — dedi va nihoyat Springfild.

U yuzidan hech narsani o‘qib bo‘lmaydigan Grexemning yuzini xuddi umrbod qamoq jazosiga hukm etilgan mahbusning mazmunsiz yuziga o‘xshatdi va izquvar eshik tomon yurganida ortidan tikilib qoldi.

* * *

Krouford va Grexem Springfildning idorasidan chiqib ketishayotganida jamoat xavfsizligi bo‘yicha rahbar Lyuis raisligidagi matbuot anjumani boshlanib bo‘lgan ekan. Muxbirlar telefonlari va videokameralarini ishga tushirib, Lyuisning berilayotgan savollarga javobini bitta qoldirmay yozib borishar, butun anjuman jarayonini barcha tafsilotlari bilan televizor va gazetalarda chiqarish uchun tayyorgarlik ko‘rishardi. Krouford va Grexem eshikka qarab yurishganda, ularning oldidan pakana bir kishi chaqqonlik bilan to‘sib chiqdi va kamerasini ularga qaratib suratga ola boshladi, bu orada xursand bo‘lib qichqirdi:

2) shunday aloqani amalga oshirishga mo‘ljallangan, harf bosish moslamasi bo‘lgan apparat; faksimil apparat.

— Uill Grexem! Meni eslaysizmi? Freddi Laundsman. “Ichkaridagi g‘iybatlar” gazetasida Gannibal Lekterning ishi bo‘yicha maqola e‘lon qilgan edim.

— Albatta, juda yaxshi eslayman, — deya ming‘irladi Grexem va Krouford bilan to‘xtamasdan o‘tib ketishdi. Launds esa oldinga yugurib borib, ularni savollar bilan ko‘mib tashladi:

— Ular sizni ishning qaysi bosqichida taklif qildilar, Uill? Nimalarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldingiz?

— Siz bilan gaplashishni istamayman, Launds.

— Bu qotilni Gannibal Lekter bilan qanday taqqoslash mumkin? Qanday qilib u o‘zining ...

— Launds! — deya uning gapini bo‘ldi Grexem baland ovozda. Krouford tezda oldinga qadam qo‘yib, biror ishkal chiqmasidan u bilan muxbir o‘rtasida turib oldi.

— Launds, siz nuqul quruq safsata yozasiz, gazetangiz ham bir tiyinga qiimmat. Daf bo‘ling bu yerdan!

Krouford Grexemning qo‘lini sekin siqib qo‘ydi:

— Uni tinch qo‘ying, Launds.

— Yur, Uill. Biron joyda nonushta qilib olaylik.

Ular qadamlarini tezlashtirishdi va burchakka burilib ketishdi.

— Qo‘polligim uchun meni kechir, Jek, bu yaramasning basharasini ko‘rsam, asablarim o‘ynab ketyapti. Kasalxonada yotganimda u palataga pusib kirib kelgandi va...

Hammasini bilaman, — dedi Krouford. — O‘shanda unga qattiq dashnom berganimdan so‘ng aqli kirib qolgandi.

Kroufordning esiga “Ichkaridagi g‘iybatlar” gazetasidagi Gannibal Lekter ishi bo‘yicha hisobot yakuniga birlashtirilgan surat tushdi. Launds o‘shanda Grexem uxlab yotgan palataga bezdirmasdan kirgan va izquvarning ustidagi choyshabni ko‘tarib, operatsiyadan keyingi qorin qismiga tushgan choklarni rasmiy tushirib ketgan edi. Gazetada aynan o‘sha fotosurat “Ichaklari

boshiga salla qilingan politsiyachi” izohi ostida bosilib chiqqandi.

* * *

Idoradagi ovqatlanish xonasi toza va yorug‘ ekan. Grexemning qo‘llari titrab, qahvasini likopchaga to‘kib yubordi. U Krouford burqsitayotgan sigaretaning tutuni qo‘shni stolda o‘tirgan juftlikka xalaqit berayotganini payqadi. Juftlik ovqatni o‘ta sekinlik bilan yeyar va yuz-ko‘zlaridan tutunga nisbatan nafratlari yaqqol sezilib turardi. Eshikka yaqin joydagi stolda o‘tirgan, g‘azabdan yuzlari burishgan ikkita ayol — ona va qiz, shekilli — nimanidir tortishishar, boshqalarning diqqatini jalb qilmaslik uchun sekinroq gapirishga urinishardi. Grexem xuddi nafratli qarash o‘ziga yo‘naltirilgandek boshqacha bo‘lib ketdi. Krouford afsuslanib tongda Vashingtondagi sudga ketishini, jarayon bir necha kunga cho‘zilishini aytdi-da, navbatdagi sigaretani tutatdi, Grexemning titrayotgan qo‘llariga ajabsinib qarab qo‘ydi.

— Atlantada ham, Birmingemdagi barcha qotillik va zo‘rlash haqidagi hujjatlar ichidan o‘sha bosh barmoq izining egasini izlash kerak. Biz, Federal qidiruv byurosi ham qarab turmaymiz. Prays “Iztopar” degan maxsus dastur orqali oldin bitta barmoq izini hujjatlar ichidan topgandi. Ishdan ketganingdan beri bu texnikani yanada rivojlantirganmiz. Federal qidiruv byurosining barmoq izlari ma’lumotlarini avtomatik ravishda izlash va qayta ishlash tizimi “Iztopar” deb ataladi, bu har qanday individual barmoq izi va ilgari politsiya hujjatlaridan o‘tgan jinoyatchining shaxsi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topishga yordam beradi. Ushbu topilmalar va tishlarning gipsleri jiddiy dalil bo‘la oladi. Endi biz kimni qidirayotganimizni hal qilishimiz va arqonni juda uzun tashlashimiz zarur. Uill, bitta shubhali shaxsni ushladik deylik. Sen borib uni ko‘rasan. Ayt-chi, o‘sha odamda seni hayron qol-

dirmaydigan qanaqadir jihat mavjud bo'lishi mumkinmi?

— Bilmayman, Jek. Jin ursin, uning ko'rinishini tasavvur ham qila olmayapman. Sen aytgandek hali mutlaqo noma'lum odamning qiyofasini yaratib qo'ysak, vaqtdan yutqazganimiz qoladi. Aytgancha, Blum bilan gaplashdingmi?

— Kecha telefonda gaplashgandik. Blum undagi o'z joniga qasd qilishga moyillikni istisno qildi, Heymlih ham xuddi shunday fikrda ekan. Blum birinchi kuni jinoyat joyida atigi bir necha soat bo'lgan, ammo u ham, Heymlih ham to'liq ma'lumotga ega. Blum bu hafta doktorlik imtihonlarini o'tkazar ekan, senga salom aytdi. Uning Chikagodagi telefon raqami bormi senda?

— Ha, bor.

Grexem miqti va dum-dumaloq jussali, ko'zlari g'amgin boquvchi psixiatr Alan Blum bilan doim iliq munosabatda bo'lgan. Grexem Blumning o'ziga hech qachon professional qiziqish ko'rsatmagani uchun juda minnatdor edi, vaholanki, psixiatrlar ko'pincha insoniyatni o'zlarining bemorlari bilan adashtiradilar.

Blum "Tish parisi" bizga qandaydir signal berayotgan bo'lishi mumkin deb hisoblayapti. Masalan, uning birorta eslatma yozib qoldirish ehtimoli bor ekan, —dedi Krouford oraga cho'kkan jimlikni buzib.

Yotoqxona devorida qoldirgan.

Blum yana aytdiki, jinoyatchi jismonan nuqsonli bo'lgan yoki o'zini jismonan nogiron deb o'ylaydi. Shuning uchun Blum bu belgiga katta umid bog'lashni tavsiya etmayapti. U shaxsan "Bizlarning oldingizda kuchsiz odam qiyofasini yaratmoqchi emasmam, Jek", — deb aytdi.

To'g'ri yondashuv.

Sen u haqida biron bir narsani bilasan, aks holda izni qoldiradim qayerdan taxmin qilgan bo'lar eding?

Yur, Jek, turaylik. Dalillar shundan iboratki, devorda bir qator qon dop'lari mavjud. Lekin, mendan hali ko'p narsa kutma.

— Ammo u bizdan qochib qutula olmaydi, to‘g‘rimi?

— Bunga ishonchim komil. Bir yo‘li bor.

— Qanaqa yo‘l?

— Hozirgacha e‘tiborimizdan chetda qolgan mavjud dalillarni topishimiz zarur.

— Aks holda?

— U ehtiyotkorligi xiralashguncha, shovqindan biron-bir kishi uyg‘onib ketib, uni birinchi bo‘lib otib tashlamaguncha qotillikda davom etaveradi.

— Boshqa imkoniyat ko‘rmayapsanmi?

— Meni: “Qotilni olomon ichida tanib oladi”, — deb o‘ylayapsan, chog‘i. Bu odam Ezio Pinza emas. “Tish parisi” aqlimiz juda o‘tkirlashib ketguncha yoki omadimiz kelgunicha to‘xtamaydi. Aks holda uning qiliqlari abadiy davom etishi mumkin.

— Nega bunchalik ishonch bilan gapiryapsan?

— Chunki u o‘z ishining dahosi.

— Aytdim-ku, sen u haqda ko‘p narsani bilib olgansan deb.

Ko‘chaga chiqqunlariga qadar boshqa og‘iz ochmagan Grexem nihoyat xayrlashish arafasida Kroufordga gap qotdi:

— Kel, keyingi to‘lin oy chiqquncha kutamiz. Shundagina u haqida nima bilishim aniq bo‘ladi.

* * *

Grexem mehmonxonaga qaytib kelgach, ikki yarim soat uxladi. Tushga yaqin uyg‘onib, hammomga tushib chiqdi va xonasiga qahva bilan sendvich¹ buyurdi. Birmingemdagi Jekobi-

¹ **Sendvich** (inglizcha) — go‘sht, kolbasa, pishloq, sabzavot kabilardan tayyorlangan buterbrodga o‘xshash taom. Buterbrod bir bo‘lak bulochka (non) ustiga qo‘yilgan go‘sht, kolbasa yoki pishloq ko‘rinishida bo‘lsa, sendvich esa bo‘lak bulochka (non) orasiga qo‘yilgan go‘sht, kolbasa yoki pishloq ko‘rinishida bo‘ladi.

lar ishini ko'rib chiqish vaqti kelgan edi. U ko'zoynagini yaxshilab artib, katta jildni oldi va deraza yoniga o'tirdi. To materiallarga chuqur kirishib ketmagunicha bir qancha vaqt mobaynida atrofidagi narsalar tufayli chalg'ib ketdi, yo'lakdan eshitilgan har bir tovush boshini hujjatlardan ko'tarishga majbur qilaverdi. Ammo ozgina vaqt o'tgach, atrofidagi dunyodan batamom uzilib hujjatlarni o'qishga sho'ng'ib ketdi. Bu orada ofitsiant kelib eshikni taqillatdi, biroz kutib turdi va yana taqillatdi. Javob berilavermaganidan so'ng buyurtmani eshik yonida qoldirib, hisob-kitob varag'iga o'zi imzo chekib yubordi.

TO'RTINCHI BOB

“Jorjiya elektr tarmoqlari” kompaniyasining nazoratchisi Xoyt Lyuis mashinasini xiyobonning orqa tomonidagi ulkan daraxt tagiga olib borib, kabinasida tushlik qilish uchun joylashib o'tirib oldi. Odamning o'z qo'llari tayyorlagan oziq-ovqat savatchasini ochishining umuman qizig'i yo'q. Hamma narsa oldindan ma'lum — u uchun hech qanday eslatma yoki kutilmagan yangilik chiqmaydi.

Xoyt sendvichini yeb tugatayotganda qulog'i ostida momaqalldiroqdek ovoz yangradi:

Bu oy elektr uchun ming dollar sarfladim, bu anchagina pul, to'g'rimi, nima deb o'ylaysan?

Lyuis boshini burib qaradi: kalta shim kiyib olgan va qo'lida bugungi ushlagan Parsonsning qip-qizil, shafqatsiz yuzi kabinaning derazasidan unga tikilib turardi.

Nima haqida gapirayotganingni tushunmadim.

O Xudoyim! Nahotki janoblari tushunmadilar? “Allaqa-chon elektr uchun ming dollarimni shilgansizlar”, — deb aytyapman. Endi tushunarli bo'ldimi?

--- Parsons, qancha elektr energiyasi ishlatganingni bilmayman, chunki hali sening elektrhisoblagichingga qaramadim. Uyingga borganimda, tekshirib ko'rib to'lov to'lov qog'oziga buni, albatta, yozib qo'yaman.

Parsons "Jorjiya elektr tarmoqlari" kompaniyasini elektr uchun to'lov miqdorini qo'shib yozishda ayblab ketdi:

— Men doimo o'z hisoblagichimdagi raqamlarni tekshirib, hisoblab boraman, kerak bo'lsa qaydlarimni "Kommunal xizmat" komissiyasiga¹ borib ko'rsataman.

— Agar istasang, hisoblagichingni birgalikda ko'rib kelamiz. Iloji bo'lsa, hozir boraylik.

— Tashvish chekmay qo'ya qol, o'zim ham uni qanday hisoblashni bilaman. O'ylaymanki, buni aslida sen yaxshilab o'rganib qo'yishing kerak.

— Jim bo'l, Parsons! — Lyuis oxiri chidolmay kabinadan sakrab tushdi. — Jin ursin, jim bo'lasanmi-yo'qmi? O'tgan yili hisoblagichingga magnit qo'yib qo'ygansan. Xotining o'sha paytda kasalxonadaligingni aytgan edi. O'shanda hech narsa demasdan uni olib tashlaganman. Qishda esa hisoblagichga shin-ni quyganingdan keyingina bayonot yozishga majbur bo'ldim. Jarimani miq etmay to'lading, shekilli. Elektr uchun to'loving uyingga sim tortganingdan keyin oshib ketgan. Yuz marta aytdim senga elektr uskunalarini sozlovchi yollab nima bo'layotganini tekshirtir deb. Buning o'rniga asossiz shikoyatlaring bilan kompaniya obro'sini to'kyapsan. Meni tushunding deb umid qilaman, Parsons.

¹ **Komissiya** (lotincha: commissio — topshirish; topshiriq, yumush) — 1) biror aniq vazifani bajarish yoki alohida maxsus chora-tadbirlar o'tkazish uchun tashkil etilgan organ; 2) shunday ishlarga vakolati bo'lgan shaxslar guruhi; 3) bir tomon (komissioner)ning boshqa tomon (komitent) topshirig'iga ko'ra ma'lum haq evaziga uchinchi shaxs bilan o'z nomidan, lekin komitent hisobidan uning manfaati yo'lida tuzgan shartnomasi; 4) shunday bitim tuzganlik uchun to'lanadigan haq (tuzilgan bitim summasining avvaldan belgilangan foizi miqdorida).